2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 150 (1749), 2026-yil 25-iyul, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIY YETAKCHILAR VA HAMKORLAR BILAN TELEFON ORQALI MULOQOTLAR O‘TKAZDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-iyul kuni xorijiy davlatlar yetakchilari va nufuzli siyosiy arboblar bilan telefon orqali muloqotlar o‘tkazdi.**

Suhbatlar chog‘ida xorijiy hamkorlar davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, farovonlik va davlatchilik faoliyatida yangi muvaffaqiyatlar, shuningdek, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga tinchlik va ravnaq tilaklarini bildirdilar.

**Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin** bilan telefon orqali muloqotda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Rossiya har tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda yetakchi korxona va kompaniyalarning kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar almashinuv faol davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari bo‘lajak tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

**Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev** bilan suhbatda O‘zbekiston — Qozog‘iston yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik sur’ati oshayotgani, ustuvor tarmoqlarda muhim kooperatsiya loyihalari ilgari surilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ko‘rib chiqdilar.

**Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov** bilan suhbatda Qirg‘iziston yetakchisi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni, shuningdek, Shavkat Mirziyoyevning ikki mamlakat o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissasini yuksak baholadi.

Barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik sur’ati ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi jadal o‘smoqda, sanoat kooperatsiyasi loyihalari, jumladan, Qo‘shma jamg‘arma doirasida amalga oshirilmoqda. Yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalari bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Bo‘lajak oliy darajadagi sammit kun tartibini, avvalo, savdo-iqtisodiy sohada puxta tayyorlash muhimligi ta’kidlandi.

**Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas’ud Pezeshkiyon** bilan suhbatda O‘zbekiston yetakchisi Yaqin Sharq mintaqasida keskinlik davom etayotganidan jiddiy tashvish bildirib, bugun har qachongidan ham vazminlikni saqlash va muloqotni qayta tiklash muhimligini alohida ta’kidladi.

Suhbat davomida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni kengaytirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston va Eron yetakchilari kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

**Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon** O‘zbekiston Prezidentining sa’y-harakatlari tufayli bugun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan dadil ilgarilab, xalqaro maydondagi nufuzini izchil mustahkamlab borayotganini alohida ta’kidladi.

Suhbatda O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tomonlar Tojikiston Prezidentining joriy yil 26-27-mart kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi chog‘ida, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak uchrashuvlar rejasini muhokama qildilar.

**Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov** bilan telefon orqali muloqotda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

U Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini ham yetkazdi.

Gurbanguli Berdimuhamedov Prezidentimizning tinimsiz mehnati va uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati tufayli O‘zbekiston yangi marralarni zabt etayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda salmoqli taraqqiyotga erishayotganini alohida ta’kidladi.

O‘zaro ishonch va umumiy manfaatlarni hisobga olish tamoyillariga asoslangan ko‘p qirrali hamkorlik sur’ati ortib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom ettirilmoqda. Yaqinda Ashxobodda o‘tgan siyosiy maslahatlashuvlarning samarali yakunlari yuksak baholandi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi jadal o‘sib bormoqda. “Shovot — Dashoguz” savdo zonasining samarali faoliyati ham o‘zaro savdo hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Energetika, sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi, transport sohalarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Parlamentlararo, hududlararo, ishbilarmonlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibini muvofiqlashtirish va ilgari surishga, shu jumladan, joriy yil kuzda Avaza shahrida o‘tkaziladigan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish doirasida alohida e’tibor qaratildi.

**Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev** bilan suhbatda O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalardagi muloqotlar davom etmoqda. O‘tgan hafta Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan qo‘shma Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlarining samarali yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi sammitga puxta tayyorgarlik ko‘rish, uning iqtisodiy kun tartibini aniq loyihalar va dasturlar bilan boyitish muhimligi ta’kidlandi.

**Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko** bilan suhbatda O‘zbekiston — Belarus strategik sheriklik munosabatlarini O‘zbekiston Prezidentining joriy yil 8-9-iyul kunlari Minsk shahriga amalga oshirgan rasmiy tashrifida erishilgan kelishuvlarni bajarish doirasida yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda samarali muloqotlar olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib bormoqda. Ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Faol tus olgan hududlararo hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

**Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an** bilan telefon orqali muloqotda qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani, shuningdek, barcha yo‘nalishlarda hamkorlik jadal rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmi o‘smoqda, qo‘shma korxonalar soni va muntazam aviaqatnovlar ko‘paymoqda, istiqbolli loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Madaniy-gumanitar hamkorlik ham faol davom etmoqda. Jumladan, Xatay viloyatida O‘zbekistonga bag‘ishlangan obyektlar ochildi, Namangandagi Xalqaro maqom san’ati festivali va Islom sivilizatsiyasi forumida Turkiya tomoni yuqori darajadagi delegatsiya bilan ishtirok etdi.

Suhbat davomida oliy darajada erishilgan kelishuvlar doirasida keng ko‘lamli reja va maqsadlarni birgalikda amalga oshirish masalalari ham alohida ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anga rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga kelishni taklif etdi.

**Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich** bilan suhbatda O‘zbekiston — Serbiya ko‘p qirrali munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. O‘tgan yilning oktyabr oyida Serbiya Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, infratuzilmaviy, madaniy-gumanitar sohalarda, shuningdek, turizm va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarida hamkorlikni izchil rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Bo‘lajak qo‘shma tadbirlar rejasi, xususan, Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish hamda O‘zbekiston delegatsiyasining Belgrad shahrida bo‘lib o‘tadigan “EKSPO-2027” xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etishi masalalari ko‘rib chiqildi.

**Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze** bilan suhbatda O‘zbekiston — Gruziya strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Joriy yilning 2-3-iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Gruziyaga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

**Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon** bilan telefon suhbatida O‘zbekiston — BAA strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani, yirik qo‘shma loyihalar jadal amalga oshirilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda ko‘p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi.

Ikki davlat yetakchilari mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

**Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn** bilan suhbatda Samarqandda o‘tgan mazmunli muzokaralar va ularning yakunida erishilgan muhim kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlar rivojida yangi sahifa ochgani alohida ta’kidlandi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida parlamentlararo aloqalar, ishbilarmonlik hamkorligi, shuningdek, madaniy-gumanitar almashinuvlar kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yetakchilar siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, oliy darajadagi bo‘lajak tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligini ta’kidladilar.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

**Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko** bilan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilayotgan ikki mamlakat parlamentlarining samarali hamkorligi katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlash, sanoat kooperatsiyasi, ta’lim va madaniyat sohalaridagi qo‘shma loyiha va dasturlarni ilgari surish bo‘yicha faol hamkorlikni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

**Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon** bilan telefon muloqotida O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tgan yil yanvar oyida BAAga oliy darajadagi tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlar samarali amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi jadal o‘smoqda, qo‘shma loyihalarning umumiy portfeli 20 milliard dollardan oshdi, 400 dan ziyod qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Avgust oyidan “Etihad Airways” kompaniyasi Abu-Dabi — Toshkent yo‘nalishida har kuni aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yadi.

Yaqin muloqotni davom ettirish va yirik loyihalarni jadallashtirish muhimligi alohida ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

**Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixanov** bilan suhbatda O‘zbekiston hududlarining Tatariston Respublikasi bilan amaliy hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda ustuvor tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratildi.

**Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev** bilan telefon suhbatida O‘zbekiston — Qozog‘iston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining bugungi eng yuksak darajasi, shuningdek, barcha ustuvor yo‘nalishlarda ko‘p qirrali hamkorlik jadal rivojlanayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

**Sankt-Peterburg shahri gubernatori Aleksandr Beglov** bilan suhbatda O‘zbekiston hududlarining Sankt-Peterburg shahri bilan ikki tomonlama amaliy hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

“Yo‘l xaritasi” asosida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga qaratilgan qo‘shma chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratildi.

**O‘zA**

# O‘ZBEKISTON VA QATAR YETAKCHILARI KUN TARTIBIDAGI DOLZARB MASALALARNI MUHOKAMA QILDILAR

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-iyul kuni Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan telefon orqali muloqot qildi.**

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qatar Amirining Yaqin Sharqda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasidagi faol sa’y-harakatlarini yuqori baholadi.

O‘zbekiston — Qatar strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarish masalalari muhokama qilindi. Oliy va yuqori darajadagi samarali muloqot va almashinuvlar faollashayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Telefon suhbati chog‘ida siyosiy muloqot hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy loyihalarni jadallashtirish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni ko‘rishga kelishib olindi.

O‘zbekiston va Qatar yetakchilari oliy darajadagi tadbirlar rejasi yuzasidan ham fikr almashdilar.

**O‘zA**

# MAHALLADAGI XAVFSIZ VA BARQAROR IJTIMOIY MUHIT – ENG KATTA BOYLIGIMIZ

## Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

**Xalqaro tahlillarga ko‘ra, 2025-yil Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng zo‘ravonlikka to‘la va qonli yillardan biri sifatida tarixga kirdi. Chunki 245 mingga yaqin odam halok bo‘ldi va dunyo bo‘ylab majburiy ko‘chirilganlar soni 122 milliondan ortib ketdi. Millionlab bola ta’limdan uzilgan, minglab korxona faoliyati to‘xtagan, butun boshli shaharlar vayron bo‘lgan.**

Bu raqamlar bizga bir haqiqatni anglatadi: tinchlik — shunchaki siyosiy tushuncha emas. Tinchlik insonning ertangi kunga ishonchi, farzandining kelajagi, oilasining baxti va vatan taraqqiyotining asosidir.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilayotgan e’tiborning ahamiyati beqiyosdir. Bugun O‘zbekistonda har bir insonning hayoti, qadr-qimmati va xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida belgilangan.

Keyingi yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida mutlaqo yangi boshqaruv tizimi shakllantirildi. Ilgari huquqbuzarlik sodir bo‘lganidan keyin chora ko‘rishga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, bugun mutlaqo yangi tamoyil — “jinoyatni ochish emas, uning oldini olish” bosh mezonga aylandi.

Davomi 4-betda




**Qayerda faqat baxtli kelajak hamda shonli o‘tmish keragidan ko‘p urg‘ulansa, anglash qiyin emaski, u yerda hozirgi holatdan, bugunning realligidan qoniqmaslik bor, ya’ni hammasi risoladagidek emas. Bu holatda odatda eng ko‘p manipulyatsiya qilinadigan qatlam yosh avloddir. Bugungi avlod esa ertaga emas, aynan bugun baxtli va farovon turmush kechirishni istaydi.**

Ularga ayni damda o‘z ko‘zlari bilan kuzata oladigan, tanida his qila biladigan sharoit va imkoniyatlar, natijalar kerak. Taraqqiyotda ortda qolishni istamagan davlat borki, buni allaqachon to‘g‘ri anglab shunga monand yo‘l tutmoqda.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar

# IQTISODIY O‘SISHNING YANGI FALSAFASI

**Global iqtisodiyotda so‘nggi yillarda yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar davlatlarni taraqqiyotning mutlaqo yangi modellarini izlashga majbur qilmoqda. Geosiyosiy qarama-qarshiliklar, xalqaro logistika yo‘laklaridagi uzilishlar, energiya bozorlaridagi beqarorlik, iqlim isishi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar hamda moliya bozorlaridagi yuqori noaniqlik iqtisodiy siyosatga an’anaviy qarashlarni tubdan o‘zgartirmoqda.**



**Sevara UBAYDULLAYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

Endi mamlakatlar raqobati tabiiy boyliklar yoki arzon ishchi kuchi bilan emas, balki iqtisodiy boshqaruv sifati, institutlar samaradorligi, investitsiya muhiti, innovatsiyalar va inson kapitali bilan belgilanmoqda. Qaysi davlat o‘z iqtisodiyotini tashqi shoklarga tez moslashtira olsa, xususiy tashabbus uchun keng imkoniyat yaratsa, ichki resurslardan oqilona foydalansa va davlat boshqaruvini natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylantirsa, kelajak iqtisodiyotida aynan o‘sha mamlakat ustunlikka ega bo‘ladi.

O‘zbekiston ham aynan ana shunday tarixiy bosqichni boshdan kechirmoqda. Keyingi yillardagi keng qamrovli islohotlar natijasida iqtisodiyotimiz mutlaqo yangi rivojlanish trayektoriyasiga chiqdi. Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, investitsiya muhitini yaxshilash, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va davlat boshqaruvini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar qisqa vaqt ichida milliy iqtisodiyotning tarkibiy qiyofasini o‘zgartirishga xizmat qildi.

Erishilgan natijalar kelgusidagi vazifalar yanada murakkab va mas’uliyatli ekanini ham ko‘rsatmoqda. Chunki iqtisodiy o‘sishning dastlabki bosqichida asosiy e’tibor bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, endi ustuvor vazifa ushbu o‘sish sifatini oshirish, barqarorligini ta’minlash va har bir fuqaro hayotida amaliy natijaga aylantirishdan iborat.

Prezidentimiz raisligida hudud va tarmoqlarda joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar hamda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi aynan shu jihatdan mamlakat iqtisodiy siyosatining yangi bosqichiga oid muhim siyosiy-iqtisodiy voqea sifatida ahamiyat kasb etadi. Unda nafaqat o‘tgan olti oylik natijalar sarhisob qilindi, balki iqtisodiyotning keyingi o‘sish nuqtalari, ichki rezervlari va davlat boshqaruvining yangi standartlari ham belgilab berildi.

Yig‘ilishda e’lon qilingan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakatimiz iqtisodiyotining tashqi bosimlarga qaramasdan barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolayotganini tasdiqlaydi. Jumladan, joriy yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulot 8,5 foiz o‘sdi. Sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, qurilish va qishloq xo‘jaligida yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi. Investitsiya hajmi 28 milliard dollarga, eksport esa 14,4 milliard dollarga yetdi. Fitch va Moody‘s xalqaro reyting agentliklari tomonidan mamlakatimiz suveren kredit reytingi oshirilgani esa iqtisodiy islohotlarimizga xalqaro hamjamiyatning ishonchi tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Biroq bu raqamlarning o‘zi iqtisodiyotning haqiqiy qiyofasini to‘liq aks ettirmaydi. Makroiqtisodiy o‘sish, avvalo, aholi daromadlari, yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlik faolligi, investitsiyalar samaradorligi va hududlar rivojida namoyon bo‘lgandagina haqiqiy mazmuniga ega bo‘ladi. Shuning uchun yig‘ilishning asosiy g‘oyasi iqtisodiy o‘sishni saqlab qolish emas, balki uning sifatini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari mamlakat aholisi 40 milliondan oshadigan sharoitda iqtisodiyot kamida 9-10 foiz o‘sishi zarurligini qayd etgani strategik iqtisodiy vazifadir. Bu, birinchi navbatda, demografik o‘sish sur’atlari, mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yuz minglab yoshlar, shaharlashuv jarayonlari va aholining sifatli ta’lim, tibbiyot, uy-joy hamda munosib ish o‘rinlariga ehtiyojidan kelib chiqadi.



Iqtisodiy nazariyada “iqtisodiy o‘sish” va “iqtisodiy rivojlanish” tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan turlichadir. O‘sish ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan o‘lchansa, rivojlanish inson kapitali, mehnat unumdorligi, innovatsiya, institutlar sifati va aholi turmush darajasidagi o‘zgarishlar bilan baholanadi. O‘zbekistondagi islohotlarning asosiy xususiyati ana shunda — iqtisodiy siyosatning markaziga raqamlar emas, inson manfaati qo‘yilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi yig‘ilishda rahbarlar faoliyatiga baho berish mezoni o‘zgarayotganini alohida ta’kidladi. Endi vazirlik yoki hokimlik ishi qabul qilingan qarorlar soni bilan emas, balki ularning aholi hayotida qanday natija bergani, tadbirkorlar uchun qanday imkoniyatlar yaratgani va hududlarda qanday iqtisodiy o‘zgarishlarga erishilgani bilan baholanadi. Bu davlat boshqaruvida natijaga yo‘naltirilgan mutlaqo yangi madaniyat qaror topayotganini anglatadi.

Aynan shu nuqtadan mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda asosiy e’tibor iqtisodiy o‘sish har bir oila, mahalla va har bir tadbirkor hayotida qanday aks etayotganiga qaratiladi. Demak, iqtisodiy siyosatning haqiqiy samarasi xalq farovonligida namoyon bo‘ladi. Shu bois, yig‘ilishda belgilangan vazifalar iqtisodiy taraqqiyotimizning uzoq muddatli strategiyasidir.

Har qanday mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan asosiy omillar haqida turli nazariyalar mavjud. Ayrim iqtisodchilar tabiiy resurslarni, boshqalar investitsiyalar yoki texnologiyalarni hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Biroq zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, uzoq muddatli va barqaror taraqqiyotning asosiy manbai, avvalo, sifatli davlat boshqaruvidir. Tabiiy boyliklarga ega bo‘lmagan, ammo kuchli institutlar va samarali boshqaruvga tayangan davlatlarning jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rinlarni egallayotgani aynan shu haqiqatni tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish bilan uzviy bog‘lanmoqda. Chunki iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun qabul qilinayotgan qarorlar o‘z vaqtida, aniq hisob-kitoblar asosida va eng muhimi, amaliy natijaga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, videoselektor yig‘ilishi davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan yangi talablarni belgilab berdi.

Yig‘ilishda mavjud imkoniyatlarni aniqlash, muammolarning ildizini ochish va ularni hal qilishning aniq mexanizmlarini belgilashga urg‘u qaratildi. Har bir vazir, tarmoq rahbari va hokimdan yil yakuniga qadar qanday natijaga erishishi, buning uchun qaysi ichki rezervlarni ishga solishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarga qanday tayyorgarlik ko‘rayotganini asoslab berish talab qilindi.

Bu talabning mazmun-mohiyati juda chuqur. Chunki iqtisodiyotda muvaffaqiyat aksariyat hollarda mavjud muammolarni hal qilishga emas, balki ularning oldini olishga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, rivojlangan davlatlarda “proaktiv boshqaruv” tushunchasi davlat siyosatida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur modelda rahbar vaziyat og‘irlashganidan keyin emas, balki xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilib, tegishli choralarni o‘z vaqtida amalga oshiradi.

Bugungi global iqtisodiyotda bunday yondashuv, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Xalqaro bozorlardagi keskin o‘zgarishlar, tashqi talab pasayishi, logistikadagi uzilishlar yoki energiya resurslari narxlari tebranishi mamlakat iqtisodiyotiga qisqa vaqt ichida ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, davlat boshqaruvi ham shunday tezkor va moslashuvchan bo‘lishi kerakki, tashqi omillar ichki iqtisodiy barqarorlikka jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmasin.

Yig‘ilishda ayrim hududlarda iqtisodiy salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotgani aytildi. Ayniqsa, investitsiyalar, sanoat va qurilish sohalarida mavjud imkoniyatlar yetarlicha ishga solinmayotgani qayd etildi. Bu har bir hududning rivojlanish salohiyatini to‘liq ishga solishga qaratilgan aniq siyosiy signal bo‘ldi.

Bugun iqtisodiyotda eng katta yo‘qotish mablag‘ yetishmasligi emas, balki mavjud imkoniyatlar ishga solinmasligidir. Qurilgan infratuzilma ishlamasa, ajratilgan kredit yangi qiymat yaratmasa, investitsiya loyihasi kechiksa yoki tadbirkor ma’muriy to‘siqlar sababli ishlab chiqarishni kengaytira olmasa, iqtisodiyot o‘z imkoniyatidan past sur’at ko‘rsatadi. Shuning uchun iqtisodiy o‘sishning yangi bosqichida asosiy vazifa yangi resurslarni izlash bilan birga mavjud resurslarni samarali boshqarishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aholi hayotida sezilishi shartligini alohida ta’kidladi. Bu davlat boshqaruvining asosiy bahosi statistik hisobotlar emas, balki odamlarning turmush darajasi ekanini anglatadi. Agar qabul qilingan qarorlar natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilsa, tadbirkorning vaqti va xarajatlari qisqarsa, mahallalarda infratuzilma yaxshilansa, kommunal xizmatlar sifati oshsa va aholi daromadlari ko‘paysa, shundagina iqtisodiy siyosat maqsadiga erishgan bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizdagi davlat boshqaruvi islohotlari iqtisodiy taraqqiyotning institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Zero, kuchli institutlar barqaror investitsiya muhiti, yuqori mehnat unumdorligi, raqobatbardosh iqtisodiyotni ta’minlaydi.

Qaror topayotgan iqtisodiy boshqaruv modeli har bir rahbarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va har bir davlat idorasini iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi samarali institutga aylantirishdan iborat.

Bu o‘zgarishlar, shubhasiz, qisqa muddatli emas. Ular kelgusi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilaydigan eng muhim omillardan biriga aylanadi. Chunki XXI asr iqtisodiyotida raqobat faqat tovar yoki xizmatlar o‘rtasida emas, balki davlat boshqaruvi tizimlari o‘rtasida ham kechmoqda. Qaysi mamlakat tez qaror qabul qilsa, ichki resurslarni samarali safarbar etsa va biznes uchun qulay muhit yaratsa, aynan u investitsiya, texnologiya jalb qila oladi.

Prezidentimiz belgilab bergan ustuvor vazifalar to‘liq va samarali bajarilishida parlament ham faol ishtirok etadi. Zero, iqtisodiy islohotlarning barqarorligi va izchilligi, eng avvalo, ularning mustahkam huquqiy asosi hamda ta’sirchan parlament nazorati bilan ta’minlanadi.

Endi qonun ijodkorligi faqat yangi qonunlarni qabul qilish bilan cheklanmasligi kerak. Amaldagi normativ-huquqiy bazani tanqidiy tahlil qilish, iqtisodiy faollikni cheklayotgan huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish parlamentning doimiy e’tibor markazida bo‘ladi.

Parlament nazorati qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va Prezident topshiriqlarining hududlardagi ijrosini tizimli baholash, byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini o‘rganish, aholi hamda tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni aniqlash va ularni hal etish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ayni paytda parlament oldida yana bir muhim vazifa turibdi. Bu — islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad va kutilgan natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish, aholi bilan ochiq muloqotni ta’minlash hamda joylarda bildirilayotgan taklif va mulohazalarni qonunchilik jarayoniga olib kirish. Shubhasiz, Prezidentimiz belgilab bergan strategik vazifalarning to‘liq ro‘yobga chiqishi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikka bog‘liq. Bu yo‘lda parlament iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini yanada mustahkamlash, ularning ijrosi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini ta’minlash vazifalarini izchil amalga oshiradi.

# FAROVONLIKKA YUZ TUTAYOTGAN MASKAN

Taraqqiyot odimlari

**Subhidam. Atrofda sokinlik hukmron. Tunda qo‘shiq aytib charchagan jizlovuqlar ham jimib qolgan. Tonggi shabada bug‘doy boshoqlarini mayin tebratadi. Jaziramada pishib yetilgan boshoqlar ohista shitirlaydi. Shu payt qayoqdadir xo‘roz qichqirig‘i sukunatni buzadi, yon-atrofdan boshqalari jo‘r bo‘ladi.**



Tun pardasi asta ko‘tarila boshlaydi. Paxtaobod mahallasi ahli hali quyosh yotog‘idan bosh ko‘tarishga ulgurmay harakatga tushib ketadi. Dala chetida motor ovozi gurullab, bug‘doyzorga kombayn oralaydi. Ortidan chang chiqargancha yuk mashinalari kirib boradi.

Shaharga ketuvchilarga ogohlantirish berganchа yangi avtobus ko‘chalarni kezadi. Qulayligi viloyat markaziga qadar 15 kilometr masofa uchun yo‘lkira atigi 2000 so‘m. Odatiga ko‘ra sut sotib oluvchi ham erta keladi. Yuk mashinasini ko‘cha boshida to‘xtatib, bir oz kutadi. Xonadonlardan birin-ketin ayollar sutga to‘lgan idishini ko‘tarib, kela boshlaydi. Oluvchi sutni o‘lchab, pulini sanab beraveradi. Bu yerdagi aksariyat xonadonlarda sigir sog‘iladi. Har bir xonadon o‘rtacha 15-20 litr sut sotib, 100-200 ming so‘m daromad topadi. Bemalol avtobusda shaharga tushib, ro‘zg‘or uchun kerakli narsalarni xarid qilib kelish mumkin. Ilgarigidek soatlab mashina kutish, yo‘lda qolib ketish yo‘q. Avtobus kuniga uch mahal qatnaydi.

Nishon tumanidagi Paxtaobod mahallasining bir tarafi paxtazor. Ikkinchi tarafi esa g‘allazorga tutash. Mahallaning o‘zida 41 fermer faoliyat yuritadi. Bir paytlar bu hududda kambag‘allik darajasi ancha yuqori bo‘lgan. Keyingi yillarda esa aholi bandligini ta’minlash, turli imtiyozli kreditlar ajratish tufayli biror bekorchi qolmadi.

Yaqinda mazkur mahalla faoliyati bilan tanishishga harakat qildik. Borganimizda ichki yo‘llarni asfaltlash ishlari qizg‘in kechayotgan edi. Qishloq faollarining aytishicha, uch marta “Tashabbusli byudjet” loyihasi orqali yo‘lning ancha qismi ta’mirlanib, yaroqsiz holga kelib qolgan elektr simyog‘ochlari beton ustunlarga almashtirib chiqilgan. Hozir esa davlat dasturi asosida qo‘shimcha asfaltlashtirilmoqda.

— Hududimizda 1195 ta xonadon mavjud, — deydi “Paxtaobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi O‘tkir Dolliyev. — Shundan 360 dan ortig‘ida asal yetishtiriladi. Qolganlari dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul. Bundan tashqari, fermerlar bilan shartnoma asosida ishlashadi. Umuman olganda bekor kishining o‘zi yo‘q. Har kim o‘z yumushi bilan band. Ro‘zg‘ori but. Birovdan kam yashayotgani yo‘q. Mahallamiz obod bo‘lib boryapti. Odamlarimiz ham oldingidek boqimanda emas. Yaxshi turmush kechirish uchun doim harakatda. Ko‘rib turganingizdek, 7 kilometrdan ortiq ichki yo‘limiz asfaltlashtirilyapti. Bu ish yakuniga yetgach, yo‘l borasida umuman kamchiliklar qolmaydi. Keling, yaxshisi, o‘zingiz guvohi bo‘ling.

Rais bilan chiqqan mashinamiz ravon yo‘lda bir maromda harakatlanadi. O‘tkir akaning aytishicha, ancha yildan beri o‘zi ham fermerlik qilib keladi.

— Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida ilmiy yondashuv asosida ish yuritilayotgani katta natija beryapti, — deydi u. — Birgina sug‘orish tizimi haqida gapiradigan bo‘lsak, dalani sug‘orish uchun suvni katta kanaldan nasos orqali olamiz. O‘nga yaqin fermer uchta nasosdan foydalanib kelardik. Lekin elektr toki uchun bir kunda kamida 150-200 ming so‘m sarflanardi. Gohida qarzga botib, suv chiqarolmay qolgan paytlarimiz ham bo‘lgan. O‘tgan yildan boshlab tejamkor nasos, oradan ko‘p o‘tmay, quyosh paneli o‘rnatdik. Hozir tekin foydalanish bilan birga nasos ishlatilmagan paytlari tuman elektr tarmoqlariga sotib, daromad ham olyapmiz.

Mashina bo‘yi barobar g‘alla o‘sib yotgan dala yonida to‘xtadi. Agrotexnik tadbirlar sifatli o‘tkazilganidanmi, har bir boshoq yaxshi yetilgan. Sal narida kombaynchi o‘rimga hozirlik ko‘rmoqda. Narigi tarafda esa ishchilar chopiq qilyapti. Dala chetlari ham fermerning nazaridan chetda qolmagan. Bir tomoniga qovoq, narirog‘iga boshqa ekin ekilgan.

— Bu yerga sizni boshlab kelishimdan maqsad dastlab fermerlarimiz ishini ko‘rsatish edi, — deydi O‘tkir Dolliyev. — Qolaversa, shu bahonada kombaynchilar holidan xabar olamiz. Mana shu atrofdagi 800 gektarga yaqin g‘allazor, yana shuncha paxtazor mahallamizga qarashli. Hududimizda 41 fermer faoliyat yuritadi. Shu paytgacha bor imkoniyatdan unumli foydalanmay kelganmiz. Hukumatimiz qishloq xo‘jaligiga katta e’tibor qaratishi tufayli yangilanishlar boshlandi. Misol uchun, hozirda g‘alladan ham, paxtadan ham avvalgidan ancha yuqori hosil olinyapti. Kam xarajat qilib, katta natijaga erishilmoqda. Minib yurgan mana shu mashinam ham fermerlik ortidan olingan. Men asosan urug‘lik g‘alla yetishtiraman. Avvallari qarzga ham kirib qolardik. Hozir 700-800 million so‘m daromad topyapmiz. Shuning evaziga o‘tgan yili bitta kombayn sotib oldim. Hozir kunlik mablag‘ ishlab topyapti. Olti kishini ish bilan ta’minladim. Mehnat qilganga yarasha rohatini ko‘rgan kishining yana ishlagisi keladi. Yildan yilga daromadimiz oshib, yangi yo‘nalishlarga qo‘l uryapmiz. Davlatimiz bergan imtiyozlardan faqat unumli foydalanishimiz kerak.

## Mehnatdan ishbilarmonlik sari yo‘l

Daladan qaytar ekanmiz, O‘tkir aka asal qadoqlash sexiga boshladi. Aytishicha, tadbirkor Abdurahmon Berdiyev aynan shu yo‘nalish bilan 10-yildan beri shug‘ullanib keladi. Lekin yetishtirgan mahsulotidan to‘liq foyda ololmagan. Chunki iste’molchilar talabiga mos qadoqlash uskunasi bo‘lmagan. Bu esa asal narxi pasayishiga olib keladi. Yaqinda esa u yangi loyiha ustida ishlab, qadoqlash sexini ochdi.

— Ilgari hech qayerda ishlamasdim. Tengdoshlarim bir necha bor xorijga borib ishlashni taklif qildi. Menga ma’qul bo‘lmadi. Yaxshisi, o‘sha ish bilan shu yerda shug‘ullanishni maqsad qildim. Mahallamizda ko‘pchilik asalarichilik bilan band. Men ham o‘zimni shu ishda sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim, — deydi Abdurahmon Berdiyev. — Avvaliga 20 asalari uyasi bilan ish boshladim. Intilgan kishi maqsad sari odimlab boraverar ekan. Boshida ishim unchalik o‘xshamagan bo‘lsa-da, hech ham ortga chekinmadim. Ishlarim asta-sekin yurishib bordi. Dastlab 5-10 million so‘m foyda ko‘rgan bo‘lsam, keyinchalik bu summa tobora ko‘payib bordi. Ammo bizdan asalni ulgurji xarid qilgan ayrim tadbirkorlar chiroyli idishlarda qadoqlab, bozor talabiga moslashtirib, ikki barobar qimmatga sotardi. Shu ishni o‘zim bajarishga kirishdim.

Tadbirkor bugun sohada o‘z ishining ustasi. Ayni paytda uning 300 dan ortiq asalari uyasi bor. Bir yilda 8-10 tonnaga yaqin asal yetishtiryapti. Yillik daromadi esa 500 million so‘mdan oshadi. Endi yangi loyihasiga ko‘ra, asalarichilik mikromarkazi ish boshlaydi. Yaqindagina qadoqlash uskunalari olib keldi. Uch kishini ish bilan ta’minladi. Endi shu yerning o‘zida asal zamonaviy uslubda qadoqlanib, bozorga chiqariladi.

— Shu paytga qadar boshqa hududlardan ishbilarmonlar kelib, mahallamizda yetishtirilgan deyarli barcha asalni xarid qilib ketardi, — deydi mahalla raisi. — Bizda qadoqlash yo‘qligi sabab arzon sotardik. Endi bu imkoniyat o‘zimizda yaratildi. Mazkur mikromarkazda nafaqat qadoqlash, asalari uylarini yasash, ozuqasini tayyorlash, mumi hamda asalari mahsulotlarini qayta ishlash nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda o‘quv kursi ochilib, savdo do‘koni faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Natijada shu yerda yangi ish o‘rni ochiladi. Rejaga ko‘ra, kelgusida mahallamizdagi 20 yigit-qiz uchun markazda ishlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, tadbirkor daromadini milliard so‘mdan oshirishni maqsad qilgan.



## Bir mavsumda yarim milliard so‘m daromad

Mahallani aylanishda davom etarkanmiz, rais zavqlanib, hudud obodligi haqida gapirib borardi. Aytishicha, mahallada ikkita maktab, bitta maktabgacha ta’lim tashkiloti bor. Uchala ta’lim muassasasi binolari ham zamonaviy qiyofaga keltirilgan. Oldin kambag‘al oilalar ko‘p edi. Hozir deyarli yo‘q. Har bir xonadon tomorqasidan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘ygan. Yoshlar esa avvalgidek xorijga ish izlab ketish o‘rniga shu yerda foydali yumush bilan band.

Yo‘lda davom etar ekanmiz, “Yoshlarimiz orasida dehqonchilikni yaxshi o‘zlashtirganlari ko‘p. Keling, shulardan biri bilan sizni tanishtiray”, deb qoldi rais. U aytgan xonadonga bordik. Tomorqada ochiq joy yo‘q. Hovli o‘rtasida ikkita katta issiqxonada pomidor pishgan. Ko‘rib havasingiz keladi. Uch-to‘rt kishi hosilni terish bilan band.

— Yoshim 26 da. Bu ishni boshlaganimda 14 yoshda edim. Dastlab kichikroq issiqxona qurgandim. Unga faqat ko‘kat ekilardi. Keyinchalik issiqxonani kengaytirib, pomidor va bodring ekadigan bo‘ldim. Daromadi ham shunga yarasha yaxshi bo‘lyapti. Oilaviy mehnat qilamiz. Hosil fevralda pishgandi. Hozirgacha sotyapmiz. Xaridorlarning o‘zi olib ketadi. O‘tgan yili bir mavsumda 250 million so‘mdan oshiq foyda oldik. Bu yil daromadni 500 million so‘mdan oshirishni reja qilganmiz, — deydi yosh dehqon Shahzod Bo‘riyev. — Hozir ikkita issiqxonamiz ham tomorqada bo‘lgani bois, bir oz torlik qilyapti. Tuman hokimligidan foydalanishga yer so‘ragandik. Yaqinda bir gektar joy ajratildi. U yerda ham ishni boshlab yubordik. Qator qilib issiqxonalar quryapmiz. O‘nga yaqin ishchi olamiz. Shundan so‘ng foydamiz yanada oshadi, deya bemalol ayta olamiz.

Paxtaobod mahallasini o‘rganish davomida hudud farovonlikka yuz tutayotganiga guvoh bo‘ldik. Asosiysi, odamlarning turmushi yaxshilangan. Hayotdan roziligi ortmoqda. Muhimi ham shu.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari





# VATAN UCHUN QANOT BOG‘LAB UCHAYLIK!



Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Boisi bugun mamlakatlar istiqboli, birinchi navbatda, yaratuvchanlik qobiliyatiga ega yetuk avlod, zamonaviy texnologiyalarni egallagan mutaxassislar, yangilikdan cho‘chimaydigan, tashabbus bilan yashaydigan yoshlar salohiyati orqali baholanayotir. Yurtimizda ham shu tamoyil izchil davom ettirilmoqda. Yosh avlodning bilim olishi, kasb egallashi, tadbirkorlik qilishi, ilm-fan bilan shug‘ullanishi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi, xalqaro maydonda munosib raqobat qilishi uchun yaratilayotgan sharoitlar yagona tizim asosida rivojlanyapti.

30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan davlatimiz rahbarining yigit-qizlar bilan uchrashuvi ushbu siyosatning navbatdagi bosqichini belgilab berdi. Muloqot davomida erishilgan natijalar chuqur tahlil qilindi, zamonaviy kasblar, sun’iy intellekt, innovatsion iqtisodiyot, yoshlar tadbirkorligi, xalqaro ta’lim, davlat boshqaruvida iste’dodli kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya hamda ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq qator tashabbuslar ilgari surildi. Bu tashabbuslar bugungi kun ehtiyojlariga javob berish bilan cheklanmay, uzoq istiqbolni ko‘zlagan taraqqiyot modelining uzviy qismi hamdir.

## Mustahkam poydevor

Har qanday islohotning umrboqiyligi, avvalo, kundalik hayotga qanchalik chuqur kirib borgani bilan belgilanadi. Keyingi davrda yoshlar siyosati ham aynan shu mezon asosida yangi mazmun kasb etmoqda. Xususan, yoshlar bilan ishlash alohida kampaniyalar yoki ma’lum sanalarga bog‘langan tadbirlar doirasidan chiqib, davlat boshqaruvining uzluksiz faoliyat yuritadigan tizimiga aylandi. Mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyatining yo‘lga qo‘yilgani, har haftaning payshanba kuni “Yoshlar kuni” sifatida belgilangani vazirlik va idoralar e’tiborini bevosita yoshlar hayotiga qaratdi.

Yaratilgan tizim qisqa fursatda aniq natijalarni berdi. “Yoshlar daftari” orqali 1,5 million yigit-qizning turli masalalari hal etildi. Minglab oilalarning turmush sharoiti yaxshilangani, ta’lim olish, ish topish, kasb egallash hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ochilgan yangi imkoniyatlar ham ayni tizim samarasidir. Muhimi, davlatning yoshlar bilan muloqoti murojaat kelishini kutadigan tartibdan ularning ehtiyojini oldindan aniqlaydigan faol mexanizmga ko‘chdi.

Olib borilgan ishlar iqtisodiy faollikda ham yaqqol ko‘rinmoqda. So‘nggi yillarda yosh tadbirkorlar soni besh barobar o‘sib, 287 mingdan oshdi. Shuningdek, yoshlar salohiyatining o‘sishi ta’lim va ilmiy yutuqlarda ham namoyon. Bugungi kunda 3,5 million yigit-qiz xorijiy tillarni chuqur o‘rganmoqda. Iqtidorli o‘quvchi va talabalar nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 434 ta medalni qo‘lga kiritdi. Yosh sportchilar esa xalqaro musobaqalarda 2245 ta medal bilan yurtimiz sharafini munosib himoya qildi. Uchrashuvda Prezidentimiz erishilgan ana shu natijalarni yangi bosqich uchun tayanch sifatida baholadi. Davlatlar o‘rtasidagi raqobatning mazmuni tubdan o‘zgarib borayotgan bir sharoitda ustunlik bilim, texnologiya va inson kapitali bilan belgilanayotgani ta’kidlandi. Shulardan kelib chiqqan holda qator yo‘nalishlar kesimida muhim vazifa va tashabbuslar ilgari surildi. Quyida ularning ahamiyati, zarurati va miqyosi haqida muxtasar fikr yuritishni maqsad qildik.

## Taraqqiyot sarmoyasi

Mehnat bozori doimiy ravishda yangilanayotgan ko‘nikmalarni, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan, amaliy tajribaga ega mutaxassislarni talab qilayotgani sir emas. Shu sabab mamlakatimizda ta’lim tizimi ham yangi mazmun bilan boyitilib, bilim berish jarayoni ishlab chiqarish, tadbirkorlik va zamonaviy kasblar bilan uzviy bog‘lanmoqda. Ilgari surilgan yangi tashabbuslar aynan ana shu ehtiyojlardan kelib chiqdi, deyish mumkin.

Jumladan, yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash maqsadida yo‘lga qo‘yilayotgan “Kelajak bilimlari ekotizimi” ushbu yo‘nalishdagi eng yirik loyihalardan biridir. Dastur doirasida har yili 500 ming nafar yigit-qizni zamonaviy kasblarga o‘qitish rejalashtirilgan. O‘quv markazlarini tashkil etishga bel bog‘lagan tashabbuskor yoshlarga yer uchastkalari hamda davlat obyektlari imtiyozli shartlar asosida ajratilishi, zarur infratuzilmaning davlat hisobidan barpo etilishi, qurilish va jihozlash xarajatlari bo‘yicha kredit stavkalarining qoplanishi ta’lim sohasiga xususiy sektorni keng jalb etish yo‘lida muhim qadam bo‘lishi shubhasiz. Bu yondashuv, o‘z navbatida, yangi o‘quv maskanlari sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda ta’lim sifati va raqobat muhitini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kasb egallash yo‘lidagi imkoniyatlar turli qatlamdagi yoshlar ehtiyojidan kelib chiqib shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Shu maqsadda joriy etilayotgan “kasb vaucheri” tizimi orqali qo‘lida hunari bor yigit-qizlar yangi yo‘nalishlarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Har yili 50 ming nafar yoshning zamonaviy kasblarni o‘zlashtirish xarajatlari foizsiz ssudalar hisobidan moliyalashtiriladi. Ehtiyojmand oilalardagi 85 ming ishsiz yoshga xususiy o‘quv markazlarida bepul ta’lim olish uchun vaucherlar berilishi rejalashtirilgan. Joriy yilning o‘zida ushbu maqsadlar uchun 120 milliard so‘m yo‘naltirilayotgani mazkur yo‘nalish ustuvor vazifa sifatida ko‘rilayotganidan darak.

Kasbiy ta’lim tizimini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish texnikumlar faoliyatida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Xususiy sektor ishtirokining kengaytirilishi, litsenziyalash tartiblarining soddalashtirilishi, yangi o‘quv yilidan boshlab xususiy texnikumlarga ham kasbga o‘qitish bo‘yicha davlat grantlari ajratilishi ta’lim bozorida sog‘lom raqobatni kuchaytiradi. Xalqaro kasb tanlovlarida g‘olib bo‘lgan yoshlar hamda ularning ustozlarini munosib rag‘batlantirish mexanizmlarining joriy etilishi esa professional mahoratning jamiyatdagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda ta’lim va kasb o‘rgatish borasidagi islohotlar bandlik masalasi bilan uzviy bog‘liq. Dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasi ham shu haqiqatni tasdiqlaydi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur singari mamlakatlarda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish ta’lim tizimi, biznes muhiti va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yagona zanjirga bog‘lash orqali yo‘lga qo‘yilgan. Bunday yondashuv tashabbuskor yoshlarning mehnat bozoriga tez kirib kelishiga, yangi ish o‘rinlari yaratishiga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekistonda ham ana shunday uzviy tizim bosqichma-bosqich qaror topmoqda. Misol tariqasida yoshlarning biznes boshlash yo‘lidagi ilk qadamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Yoshlar mini-franshizasi” dasturi ishga tushirilayotganini aytish mumkin. Mahalliy brendlarning tayyor biznes modelini tanlagan yigit-qizlarga Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasi tomonidan 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu dasturlar uchun 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Tayyor tajriba asosida faoliyat boshlash imkoniyati biznes yuritishdagi dastlabki xatolarni kamaytirish, bozor talabini tezroq anglash va barqaror faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun muhim omil sanaladi.

Yoshlarni ish bilan ta’minlashda ham yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Oliy ta’lim muassasasini tamomlagan bitiruvchini ishga qabul qilgan tadbirkorlar uchun yosh mutaxassisga nisbatan daromad hamda ijtimoiy soliq bir yil davomida 1 foiz etib belgilanmoqda. Mazkur rag‘bat 200 mingga yaqin bitiruvchining mehnat bozoriga kirib kelishini yengillashtirishi kutilyapti.

Bundan tashqari, yigit-qizlarning biznes boshlashi yo‘lidagi tashkiliy to‘siqlarni qisqartirish ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Kasb o‘rganish, ishga joylashish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha xizmatlarni bir joyda taqdim etadigan tegishli xablar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Dastlab Surxondaryo viloyatida sinov tariqasida yo‘lga qo‘yiladigan mazkur tajriba keyinchalik boshqa hududlarda ham joriy etiladi. Turli idoralar o‘rtasida sarson bo‘lish o‘rniga barcha zarur xizmatlarning yagona manzilda jamlanishi yoshlarning vaqti hamda imkoniyatlarini tejashi tayin.

Yoshlar tadbirkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda Bank-moliya akademiyasiga alohida vazifa yuklatilmoqda. Akademiya hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib tayyor biznes loyihalarini ishlab chiqadi, Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasi esa yuqori daromad keltiradigan, ko‘plab ish o‘rinlari yaratishga qodir tashabbuslarga 5 milliard so‘mgacha investitsiya kiritadi. Mazkur tizim kamida 300 ming nafar yoshning o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishiga ko‘maklashishi ko‘zda tutilgan. Bu yondashuv yoshlarni ish izlovchi sifatida tarbiyalash yo‘lidan ish o‘rni yaratuvchi kuchga aylantirish g‘oyasiga tayanadi. Zero, iqtisodiy taraqqiyotning bugungi talabi ham aynan shuni taqozo etmoqda.

## Dunyoga yuzlangan avlod

Asrimizda davlatlarning xalqaro maydondagi nufuzi ko‘p jihatdan ularning qanday mahsulot ishlab chiqarayotgani bilangina emas, qanday g‘oya taklif qilayotgani, o‘z madaniyati va ilmiy salohiyatini dunyoga qay darajada tanita olayotgani bilan ham baholanmoqda. Bu jarayonda eng faol kommunikatorlar, tabiiyki, yoshlar hisoblanadi. Chet tillarni biladigan, turli madaniy muhitlarda bemalol muloqot qila oladigan, zamonaviy axborot makonining qonuniyatlarini tushunadigan avlod mamlakatning o‘ziga xos “yumshoq kuch” resursidir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi yoshlar siyosati ichki taraqqiyot bilan bir qatorda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi intellektual va madaniy ishtirokini kengaytirishda ham muhim o‘ringa ega.

Bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal egallagan 650 mingdan ortiq yigit-qiz salohiyatidan mamlakatimizning boy tarixi, bebaho madaniy merosi, turizm salohiyati hamda eksport imkoniyatlarini xalqaro auditoriyaga yetkazishda samarali foydalanish bo‘yicha mutlaqo yangi yondashuv taklif etildi. Ayni maqsadda raqamli kontent platformasi ishga tushirilib, har yili 20 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Sir emaski, dunyoda tobora kuchayib borayotgan raqamli diplomatiya sharoitida sifatli multimedia mahsulotlari, tahliliy materiallar, videokontent va kreativ loyihalar mamlakat imijini shakllantirishning muhim vositalaridan biriga aylangan. Yoshlarning ushbu jarayondagi faol ishtiroki yurtimiz haqidagi tasavvurlarni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali boyitishi lozim.

Jahon amaliyotida “brain circulation” — bilim va tajribaning erkin almashinuvi tamoyili tobora keng qo‘llanmoqda. Bunday model yuqori malakali kadrlar salohiyatini milliy rivojlanish manfaatlari yo‘lida safarbar etishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro ta’lim makonida tahsil olayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash tashabbusi esa ushbu tendensiyaning bundan buyon bizda ham amaliyotga tatbiq etilishini anglatadi. Unga ko‘ra, yetakchi xorijiy oliygohlarda o‘qiyotgan 14 mingdan ortiq talaba ta’til davrida vazirliklar, hokimliklar, davlat tashkilotlari hamda xususiy kompaniyalarda amaliyot va stajirovka o‘tashi uchun maxsus raqamli platforma yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu tizim yoshlarning xorijda orttirgan bilim va tajribasini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lash imkonini beradi.

Yana bir e’tiborga molik jihat “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatining yangi yo‘nalish bilan boyitilishidir. Endilikda xususiy sektor buyurtmalari asosida ham yoshlarni dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalariga yuborish mumkin. Mazkur mexanizm mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan xalqaro ta’limni o‘zaro bog‘laydi. Natijada iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘ziga zarur mutaxassislarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi.

## Raqamli tafakkur va sun’iy intellekt

Sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, raqamli xizmatlar va yuqori texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlari qatoridan joy olmoqda. Jahonning yetakchi davlatlari milliardlab dollar investitsiyalarni aynan shu yo‘nalishlarga yo‘naltirayotgani bejiz emas. Bu jarayonda yoshlar eng faol ishtirokchi, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradigan va amaliyotga tatbiq etadigan asosiy kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash masalasi strategik ustuvorlik darajasiga ko‘tarildi.

Ilgari surilayotgan tashabbuslar ushbu yo‘nalishning mutlaqo yangi bosqichga kirayotganidan dalolat beradi. Xususan, “Raqamli hukumat” markazida mamlakatimizdagi ilk superkompyuter klasterining ishga tushirilishi ilmiy izlanishlar va murakkab hisob-kitoblarni bajarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Kelgusi yilda uning quvvatini uch barobar oshirish rejalashtirilyapti. Shu bilan bir qatorda, joriy yilning o‘zida 20 ta oliy ta’lim muassasasida sun’iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilishi yosh tadqiqotchilar va talabalarga ilg‘or texnologiyalar bilan bevosita ishlash imkonini beradi. Muhimi, ushbu laboratoriyalar faqat o‘quv maydoni emas, hududlar va tarmoqlardagi dolzarb muammolarga innovasion yechimlar ishlab chiqiladigan ilmiy-amaliy platforma sifatida faoliyat yuritadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida infratuzilmaning kengayishi ham muhim o‘rin tutadi. Yangi AT parklarining barpo etilishi hisobidan 20 mingdan ortiq yigit-qiz uchun yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratilishi ko‘zda tutilgan. Bu tashabbus axborot texnologiyalarini mamlakat iqtisodiyotining yangi o‘sish nuqtalaridan biriga aylantirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, “Mening birinchi kompyuterim” dasturi orqali ehtiyojmand oilalardagi 10 ming nafar yoshga noutbuk xarid qilish uchun ko‘mak berilishi raqamli tenglikni ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri.

Qolaversa, kadrlar tayyorlash tizimida mazmun jihatidan yangi yondashuv shakllanmoqda. Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun dual ta’lim modelining kengaytirilishi nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytiradi. “Muhammad al-Xorazmiy” nomidagi davlat stipendiyasi hamda iqtidorli qizlar uchun ta’sis etilgan “Muhandis qizlar” stipendiyasi ilmiy salohiyatni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblariga berilayotgan 1 milliard so‘mlik mukofotning endilikda sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro olimpiadalar sovrindorlariga ham tatbiq etilishi esa ushbu yo‘nalish davlat miqyosida alohida ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolat.

Raqamli makonda milliy manfaatlarni ilgari surish masalasi ham e’tibordan chetda qolmayapti. AT parklarda kompyuter va mobil o‘yinlar ishlab chiquvchilar uchun inkubatsion markazlar tashkil etilishi, har yili milliy ruhni aks ettiradigan kamida 20 ta o‘yin yaratish bo‘yicha davlat buyurtmasi berilishi kreativ iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishda qo‘l keladi. Kompyuter o‘yinlari milliardlab insonlarni qamrab oladigan global madaniy mahsulotga aylangan. Ana shunday maydonda milliy tarix, qadriyat va qahramonlik timsollarini zamonaviy formatlarda namoyish etish yosh avlodning dunyoqarashini boyitish bilan birga vatanimiz madaniy salohiyatini xalqaro auditoriyaga yetkazishning ta’sirchan vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarni puxta egallash, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish yoki zamonaviy muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘z-o‘zidan yakuniy maqsadni ifodalamaydi. Ushbu salohiyat yangi g‘oya, yangi mahsulot va biznes yechimlari orqali iqtisodiyotda amaliy natija bergan pallada haqiqiy qiymat kasb etadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o‘sishning muhim qismi aynan innovatsion ekotizimlar hisobiga ta’minlanmoqda. Bir vaqtlar kichik talabalar loyihasi sifatida ish boshlagan ko‘plab texnologik kompaniyalar bugun global bozorning qiyofasini belgilab berayotgani yaxshi ma’lum. Bunday tajriba kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlash, tavakkal qilish madaniyatini rivojlantirish hamda yoshlarning tashabbusiga ishonch bildirish uzoq muddatli taraqqiyot uchun naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalar ham aynan shu strategik qarashga tayanadi. 2030-yilgacha mamlakatimiz iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirish maqsadi qo‘yilgan. Bu ulkan marraga erishish ishlab chiqarish hajmini kengaytirishdangina iborat emas, albatta. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, ilm-fan va texnologiyaga tayangan innovasion mahsulotlar ulushi izchil ortib borishi zarur. Shu bois, barcha sohalarga yangi g‘oya olib kiradigan startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash strategik vazifa.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha shakllangan poydevor ham e’tiborga molik. So‘nggi to‘qqiz yil davomida mamlakatimiz startap ekotizimi 15 barobar o‘sib, 4 milliard dollardan ortiq qiymatga ega bo‘ldi. Shu davr ichida 1200 dan ziyod istiqbolli startap loyihalari yuzaga keldi. Yangi bosqichda ushbu jarayon yanada tizimli tus oladi. Har bir vazir, tarmoq hamda hudud rahbarlari o‘z faoliyatidagi dolzarb masalalarni yoshlarning innovatsion g‘oyalari orqali hal etishga qaratilgan “1 mingta masalaga — yoshlardan 1 mingta yechim” loyihasini yo‘lga qo‘yadi. Bu yondashuv boshqaruv tizimida ochiq innovatsiyalar tamoyilini keng joriy etish imkonini beradi. Turli sohalarda to‘plangan amaliy muammolar iste’dodli yoshlar uchun yangi ilmiy izlanishlar, startaplar va texnologik yechimlar manbaiga aylanadi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan biznes, axborot texnologiyalari va kreativ iqtisodiyot yo‘nalishlaridagi eng istiqbolli 100 ta loyihaga 1 milliard so‘mgacha investitsiya kiritilishi rejalashtirilgani ushbu tizimning muhim moliyaviy tayanchini yaratadi.

Shuningdek, yoshlar bilan ishlash tizimida individual yondashuv tobora muhim o‘rin egallamoqda. Hayotiy sharoiti, oilaviy ahvoli yoki taqdir taqozosi bilan murakkab vaziyatga tushib qolgan yigit-qizlarning jamiyatdan uzilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik ustuvor vazifalar qatorida. Shu maqsadda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, harbiy xizmatdan, migratsiya jarayonlaridan so‘ng yurtga qaytib kelgan, jazoni o‘tab chiqqan hamda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Kafolatlangan birinchi qadam” paketi joriy etilmoqda.

Ijtimoiy integratsiya masalasi ta’lim muassasalari faoliyatida ham yangicha mazmunga ega bo‘lyapti. “Ustoz — talaba” dasturi doirasida uyushmagan yoshlarga ko‘maklashayotgan talabalarni rag‘batlantirish tizimi joriy etiladi. Shuningdek, yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish ham mazkur siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ayni maqsadda beshta yo‘nalish bo‘yicha “TOP-100” dasturi amalga oshiriladi. G‘oliblar munosib taqdirlanib, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladi. Har bir vazirlik va tarmoq o‘z sohasidagi iste’dodli yoshlarni saralab, xalqaro tashkilotlarga stajirovka o‘tash uchun yuboradi. Yiliga 2 ming nafar yoshning ana shunday dasturlarda ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Yoshlarni yagona maqsad atrofida birlashtirish va ularning faolligini rag‘batlantirish maqsadida “O‘zbekiston yoshlar ligasi” platformasi ishga tushiriladi. Mazkur tizim orqali ta’lim, ilm-fan, tadbirkorlik, kasbiy rivojlanish va jamoatchilik faoliyatidagi natijalar baholanadi. Yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan yoshlarga grantlar, kontrakt to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar, kasb vaucherlari, xorijiy stajirovkalar, imtiyozli kreditlar, ipoteka imkoniyatlari hamda kadrlar zaxirasidan o‘rin olish imkoniyati taqdim etiladi.

Mazkur yo‘nalishdagi tashabbuslar “Vatan mehri — ijtimoiy tashabbuslar” tanlovi, ijtimoiy xavf guruhidagi bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Qanot” loyihasi hamda “Yoshlar tashabbuslari marafoni” davomida ilgari surilgan g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladigan “Tashabbuslar ofisi” faoliyati bilan yanada boyitilmoqda. Ushbu maqsadlar uchun 50 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan.

Muxtasar aytganda, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan, mehnat qilishdan cho‘chimaydigan, bilimini muntazam boyitib boradigan yoshlar mamlakatning buguni va ertasi, tayanch nuqtasidir. Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari ham ana shu izlanuvchan, tashabbuskor va Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatni chuqur his etadigan yoshlar. Ularning bilim va salohiyatiga tayanib amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yurtimizni yangi marralar sari yetaklaydi. Bunday ishonch va e’tibor esa har bir yoshni faqat o‘z kelajagi uchun emas, xalq va davlat istiqboli uchun ham mas’ul ekanini chuqur anglashga undaydi.



**Biz uchun eng katta yutuq har bir mahallada, xonadonda insonning o‘zini xavfsiz his qilishi, farzandlarimizning musaffo osmon ostida kamol topishi, yurtimizda tinchlik va barqarorlikning yanada mustahkam qaror topishidir.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 25-iyul, 150-son

**Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!**





# MAHALLADAGI XAVFSIZ VA BARQAROR IJTIMOIY MUHIT – ENG KATTA BOYLIGIMIZ

**Qutbiddin BURXONOV,**
**Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi**

Boshlanishi 1-betda

Bu yondashuvning eng muhim jihati shuki, xavfsizlikka faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki davlat organlari, mahalla, ta’lim muassasalari, oila va keng jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi asosida ta’minlanadigan umummilliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan deyarli har yilning dastlabki kunlarida aynan jamoat xavfsizligi, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilinishi yaxshi an’anaga aylandi. Bu esa sohaga davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyat berilayotganini anglatadi.

Prezidentimizning joriy yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham ana shu tizimli islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Bu qarorning asosiy maqsadi mahallalarda ijtimoiy profilaktikani kuchaytirish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, xotin-qizlar va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish, aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish hamda har bir mahallada xavfsiz va barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishdan iborat.

Eng muhimi, qaror faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishni emas, balki mahalla institutini kuchaytirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, profilaktika inspektorlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish hamda har bir fuqaroni xavfsizlikni ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni nazarda tutadi.

Zero, xavfsiz mahalla faqat jinoyat sodir etilmaydigan hudud emas. Xavfsiz mahalla bolalar bemalol o‘ynaydigan, yoshlar orzu-maqsadlari sari dadil intiladigan, xotin-qizlar o‘zini himoyalangan his qiladigan, keksalar xotirjam hayot kechiradigan, tadbirkor ertangi kunga ishonch bilan investitsiya kiritadigan, har bir inson o‘zini erkin va xavfsiz sezadigan hayot muhitidir.

Ana shu ezgu maqsadlarga erishishda Oliy Majlis Senati ham faol ishtirok etib, qabul qilinayotgan qarorlarning joylardagi ijrosini parlament nazorati asosida muntazam o‘rganib, muammolarni bartaraf etish va qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq choralar ko‘rmoqda.

## Parlament nazorati — qarorlar ijrosining eng muhim kafolati

So‘nggi yillarda Oliy Majlis Senati tomonidan joylardagi o‘rganishlar mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Endi parlament nazorati faqat hisobot eshitish bilan cheklanmay, hududlarga chiqib, aholi bilan muloqot qilish, mavjud holatni joyida baholash, mas’ullar faoliyatini tahlil etish va qonunchilikni takomillashtirish uchun amaliy takliflar ishlab chiqishni ham o‘z ichiga olmoqda.

Bu yondashuv, ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida muhim. Chunki xavfsizlik masalasida har bir qarorning natijasi bevosita inson hayoti, huquq va erkinliklari hamda jamiyat barqarorligi bilan bog‘liq.

Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy Majlis Senatining mas’ul qo‘mitalari Toshkent shahri tumanlariga biriktirildi. Xususan, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi chekiga Bektemir, Mirobod va Yangihayot tumanlari tushdi.

Mazkur tumanlarda qo‘mita raisi boshchiligida ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular tarkibiga senatorlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura, ichki ishlar, soliq organlari rahbarlari, “mahalla yettiligi” va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari jalb qilindi.





> **Mazkur tumanlarda qo‘mita raisi boshchiligida ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular tarkibiga senatorlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura, ichki ishlar, soliq organlari rahbarlari, “mahalla yettiligi” va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari jalb qilindi.**

Ishchi guruhlar faoliyatining asosiy maqsadi raqamlar ortidagi haqiqiy holatni ko‘rishdan iborat bo‘ldi. Buning uchun mahallalarda jinoyatchilik holati, profilaktika ishlari, ijtimoiy muhit, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash tizimi, videokuzatuv kameralari, domofonlar, “SOS” tashvish tugmalari, raqamli kuzatuv vositalari hamda profilaktika inspektorlari faoliyati bevosita joyiga chiqqan holda o‘rganildi.

Eng muhimi, har bir tashrif ochiq muloqot ruhida tashkil etildi. Mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, mahalla faollari va yoshlar yetakchilari bilan suhbatlar o‘tkazilib, aholini qiynayotgan muammolar, amaldagi qonunchilikda uchrayotgan bo‘shliqlar hamda huquqiy tartibga solishni talab etayotgan masalalar muhokama qilindi.

Bu esa parlament nazoratining yana bir muhim vazifasi — qonunchilikni amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Prezident qarorlari ijrosini ta’minlash va jamoat xavfsizligi sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida xalq deputatlari Mirobod, Bektemir va Yangihayot tumanlari kengashlarining senatorlar ishtirokida qo‘shma sessiyalari muntazam o‘tkazilmoqda.

Ushbu sessiyalarda tuman hokimlari, ichki ishlar, prokuratura, soliq, mahalla va boshqa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari axborotlari eshitilib, Prezident hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi, mahallalardagi kriminogen vaziyat, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktika ishlari samaradorligi hamda aniqlangan muammolar yuzasidan tanqidiy muhokamalar o‘tkazilmoqda. Muhokamalar yakunlari bo‘yicha har bir masala kesimida aniq vazifalar va ijro muddatlari belgilanib, deputatlik hamda parlament nazorati ostiga olinmoqda.

Bu esa mas’ullarning shaxsiy javobgarligini oshirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish, qabul qilingan qarorlarning joylarda to‘liq va sifatli ijrosini ta’minlash, eng muhimi, aholini qiynayotgan muammolarga tezkor va manzilli yechim topishda ijobiy samarasini bermoqda.

Ishchi guruh tomonidan Yangihayot tumanida keng ko‘lamli o‘rganishlar o‘tkazildi. Natijalar ko‘rsatdiki, profilaktika tadbirlari va mahallalardagi manzilli ishlar natijasida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar o‘tgan yilning shu davridagiga nisbatan kamaygan.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar ham sezilarli qisqargan. Eng muhimi, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar qariyb 79 foiz, yoshlar jinoyatchiligi esa 54,5 foiz kamaygani profilaktika ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Tumanda jami Face-ID va davlat raqam belgilarini avtomatik aniqlaydigan 236 ta intellektual kamera o‘rnatilgani, yuzlab domofonlar va “tashvish tugmalari” ishga tushirilgani xavfsizlikni ta’minlashning mutlaqo yangi bosqichiga o‘tilganidan dalolat beradi.

Mirobod tumanida ham ishchi guruh tomonidan doimiy o‘rganishlar o‘tkazildi. Bu yerda eng e’tiborli jihatlardan biri raqamli texnologiyalar samarali joriy etilganidir.

Xususan, 105 mingdan ziyod fuqaro “Mening inspektorim” mobil ilovasiga ulangani natijasida profilaktika inspektorlari bilan aholi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa yo‘lga qo‘yildi. Natijada “102” xizmatiga tushayotgan kunlik murojaatlar soni sezilarli darajada qisqardi.

Bektemir tumanida erishilgan natijalar alohida e’tiborga loyiq. Bugungi kunda tumanda “qizil” toifadagi birorta ham mahalla mavjud emas. Bu — mahalla tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik hamkorligi samarasi.

Tumanda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 60 foiz, yoshlar jinoyatchiligi 54,5 foiz, ayollar jinoyatchiligi 78,6 foiz kamaydi. Shuningdek, yuzlab videokuzatuv kameralari, domofonlar va texnik qo‘riqlash vositalari o‘rnatilishi natijasida o‘g‘irlik jinoyatlari ham sezilarli qisqardi.

Bu raqamlarning har biri ortida inson taqdiri mujassam. Masalan, yoshlar jinoyatchiligining yarmidan ko‘proqqa kamayishi yuzlab yigit-qizlarning jinoyat yo‘liga kirmay, ta’lim olish, kasb egallash va jamiyatning munosib a’zosi bo‘lib kamol topishi uchun imkoniyat yaratilganini anglatadi.

Xotin-qizlar jinoyatchiligining keskin qisqarishi esa yuzlab oilalarda sog‘lom ma’naviy muhit qaror topayotgani, ijtimoiy muhofaza va profilaktika ishlari samara berayotganining amaliy isbotidir.

Statistik raqamlar yana bir haqiqatni tasdiqlaydi: xavfsizlikka sarflangan har bir mablag‘, o‘rnatilgan har bir kamera, profilaktikaga ajratilgan har bir soat kelgusida yuzlab huquqbuzarliklarning oldini olish, inson hayoti va mol-mulkini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, profilaktikaga asoslangan tizim har qanday jinoyatga qarshi kurashishning eng samarali yo‘lidir. Bektemir, Mirobod va Yangihayot tumanlarida qilinayotgan ishlar aynan shu tamoyilning amaldagi natijasini yaqqol namoyon etmoqda.

Jinoyatchilik statistikasidagi har bir kamayish faqat raqam emas. Bu buzilmay qolgan bir oila, jabr ko‘rmagan bir inson, yo‘qotilmagan mol-mulk, yetim qolmagan bir farzand deganidir.

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

## Xavfsizlik — iqtisodiy taraqqiyot, investitsiya va farovon hayotning asosiy omili

Ayrimlar jamoat xavfsizligi faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yoki jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog‘laydi. Aslida, xavfsizlikning qamrovi ancha keng. U mamlakat iqtisodiyoti, investitsiya muhiti, tadbirkorlik faolligi, turizm salohiyati va eng muhimi, insonlarning kundalik hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun dunyo tajribasida xavfsizlik iqtisodiy o‘sishning asosiy shartlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Investor, tadbirkor yoki sayyoh, avvalo, bir savolga javob izlaydi: “Bu hudud xavfsizmi?”. Ana shu savolga ijobiy javob bo‘lgandagina investitsiya kiritiladi, yangi ishlab chiqarishlar yo‘lga qo‘yiladi, mehmonxonalar quriladi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanadi.

Huquqbuzarlik kamaygan joyda tadbirkor biznesini kengaytirishdan cho‘chimaydi. U yangi ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy byudjetga ko‘proq soliq to‘laydi, iqtisodiy faollik ortadi. Bu esa aholi daromadlari o‘sishi, ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi va hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, mahalla darajasida xavfsiz muhitning shakllanishi har bir oilaning kundalik turmushida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Kechki payt bolalarning bemalol sport maydonchasida o‘ynashi, ota-onalarning xotirjamligi, keksalarning erkin sayr qilishi, tadbirkorning o‘z mulki xavfsizligiga ishonishi — bularning barchasi xavfsizlikning inson hayotidagi amaliy ifodasidir.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xavfsiz mahalla” tamoyilining mazmun-mohiyati aynan shunda. Bu tashabbus faqat jinoyatchilikni kamaytirishni emas, balki inson uchun qulay, osoyishta va barqaror yashash muhitini yaratishni nazarda tutadi.

Bugungi global raqobat sharoitida turizm sohasida muvaffaqiyat qozonish uchun boy tarixiy meros yoki betakror tabiatning o‘zi yetarli emas. Sayyohlar mamlakat tanlashda, birinchi navbatda, uning xavfsizligiga e’tibor qaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xavfsiz, ochiq va mehmondo‘st davlat sifatida jahon hamjamiyatida tobora mustahkam nufuz qozonmoqda. Bu, o‘z navbatida, turizm sohasining jadal rivojlanishiga kuchli turtki bermoqda.

Agar 2016-yilda mamlakatimizga qariyb 2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib, 12 millionga yaqinlashdi. Qisqa vaqt ichida sayyohlar oqimining qariyb olti barobar oshishi yurtimizda xavfsiz va qulay muhit yaratish, transport, mehmonxona va servis infratuzilmasini takomillashtirish, eng muhimi, tinchlik va jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida yuritilayotgan izchil davlat siyosatining amaliy natijasidir.

Eng muhimi, bunday tizimlar fuqarolarning osoyishta hayotini ta’minlash, tadbirkorlik va investitsiya uchun ishonchli muhit yaratish hamda mahalliy va xorijiy mehmonlarda O‘zbekistonning xavfsiz davlat ekani haqidagi ijobiy tasavvurni yanada mustahkamlamoqda.

## Xulosa o‘rnida

Bugun yurtimizdagi islohotlar natijasida xavfsizlikni ta’minlash mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Parlament nazorati, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va aholi bilan ochiq muloqotga tayangan mazkur tizim yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam tayanchi bo‘layotir.

Bektemir, Mirobod va Yangihayot tumanlarida qilinayotgan ishlar bir haqiqatni yana bir bor tasdiqladi: xavfsizlikka erishish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki davlat idoralari, mahalla, ta’lim muassasalari, tadbirkorlar va eng avvalo, fuqarolarning hamjihatligi bilan ta’minlanadi.

Biz uchun eng katta yutuq har bir mahallada, xonadonda insonning o‘zini xavfsiz his qilishi, farzandlarimizning musaffo osmon ostida kamol topishi, yurtimizda tinchlik va barqarorlikning yanada mustahkam qaror topishidir. Zero, tinchlik va xavfsizlik bor joyda taraqqiyot, farovonlik va inson qadri yuksaladi.

---

**Obod manzillar**

# GULBOG‘DAN ESAYOTGAN ISLOHOTLAR NAFASI

**Zangiota tumanidagi Gulbog‘ mahallasida barpo etilgan namunaviy uylardan biriga oilam bilan ko‘chib kelganimizga roppa-rosa o‘n yil bo‘ldi. Yaxshi eslayman, o‘sha paytlari mahallaga eltuvchi asosiy yo‘llar o‘nqir-cho‘nqir, yog‘ingarchilik payti ko‘chalarda suv to‘planib katta-katta ko‘lmaklar hosil bo‘lardi. Ayniqsa, qishda bu yerlardan o‘tish azob edi.**



2015-yili foydalanishga topshirilgan namunaviy loyiha asosidagi 148 xonadon egalari ayni muammodan aziyat chekardi. Chunki ular uchun yangi qurilgan ichki yo‘llar bundan-da abgor ahvolda bo‘lgan.

Sir emas, mahallaga birin-ketin ko‘chib kelgan biz kabi yangi oila a’zolari bu singari noqulayliklar tufayli poytaxtdagi o‘qish va ishga borib-kelishda qiyinchiliklarga duch kelardi. Bundan tashqari, farzandini bolalar bog‘chasiga berish istagidagi ota-onalar ancha yo‘l yurish, vaqt va mablag‘ sarflashiga to‘g‘ri kelardi. Mahallamizda aholi soni oshib borishi, Toshkent shahriga tutash hududda yashashimizga qaramay, ichki ko‘cha va yo‘llarimizdan yengil avtomobillar kam o‘tardi, avtobus qatnovini tasavvur eta olmasdik.

Yillar o‘tdi. Muammolar navbati bilan bartaraf etila boshlandi. Dastlab ichki ko‘chalarimiz betonlashtirildi. Keyinroq internet xizmatlari kirib keldi.

“Turli sohalarda amalga oshirayotgan islohotlarimizning natijalari, yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar samarasi, avvalo, mahallalarda, u yerda yashayotgan odamlarning kayfiyatida namoyon bo‘ladi”, degan edi davlatimiz rahbari. Shu ma’noda aytish mumkinki, bugun “Gulbog‘” MFYda yaratilgan qulay sharoit, imkoniyatlardan odamlar rozi.

Yo‘l-yo‘lakay mahalla idorasiga kirar ekanman, “yettilik” vakillari qizg‘in ish ustida ekaniga guvoh bo‘ldim. “Gulbog‘” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Saodat Patxiddinovaning qayd etishicha, davlatimiz rahbarining shu yil 24-iyundagi “Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni “yettilik” faoliyatini yangicha tashkil etishda muhim dasturulamal bo‘lmoqda.

— Yoshlarimiz juda faol, — deydi mahalladagi yoshlar yetakchisi Gavhar Solihova. — Bir yuz saksondan ziyod yigit-qizlarimiz mamlakatimizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari, o‘n nafarga yaqini esa xorijda tahsil olmoqda. Ular bilan onlayn muloqotda bo‘lib turamiz, muammolari va qiziqishlarini o‘rganamiz. Bundan tashqari, ishsiz yoshlar bandligini ta’minlash chorasini ko‘ryapmiz. Yangi tashabbus va loyihalar bilan murojaat qilganlarga ko‘mak berilyapti. Chet tillarini o‘rganishga moyilligi yuqori bo‘lgan yigit-qizlarning bepul til o‘rganishiga yordamlashilmoqda. Shu kunlarda kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun bepul tikuvchilik kursi ochish harakatidamiz.

Mahalladan “Toshkent indeks” savdo markaziga avtobus qatnovi muntazam yo‘lga qo‘yilgani aholi uchun katta qulaylik yaratdi. Ko‘pchilik gulbog‘liklar qatori men ham har kuni ushbu yo‘nalishdan foydalanib, Toshkent yer usti metro bekatiga yetib olaman. Bugun ham ertalabdan ishga borish uchun mahallamizdagi shohbekatga chiqdim. O‘n chog‘li odam bor ekan. Mahalladoshlarim ko‘zlaridan ularning bugungi tinch va osoyishta, farovon hayotdan shukronalik hissini ilg‘ash qiyin emas.

Besh daqiqa o‘tar-o‘tmas, bekatga kelgan avtobusga chiqdik. E’tiborlisi, avtobus saloni salqin, u qo‘zg‘alishi bilan bir muddat xayol chulg‘adi. O‘n yilcha avval ushbu bekat va mahallamizdagi namunaviy uylarning o‘rni ochiq dala bo‘lgani, bu yerlarda qulupnay yetishtirilgan paytlar yodimga tushdi. Keyingi 8-9 yil mobaynida ushbu hudud orqali har kuni ishga qatnaganim, Toshkent viloyatining Zangiota, poytaxtimizning Sergeli va Yangihayot tumanlarida mingdan oshiq ko‘p qavatli uy qurilish jarayonlari, ko‘plab yangi maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari, bog‘-rog‘lar, o‘nlab ishlab chiqarish korxonalari hamda turli tashkilot va idoralarning binolari, yuzlab xizmat ko‘rsatish va infratuzilma obyektlarining barpo etilishiga guvoh bo‘lganman.

Bundan tashqari, mehmonxonalar, ko‘priklar, ichki va umumfoydalanuv yo‘llari qurilib, bekat va shohbekatlar, yo‘l o‘tkazgichlar qad rostladi, yangi transport yo‘nalishlari ochildi.

Tarixan qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan mazkur ishlar haqida gapirish, xayol surish va yozish oson. Yuzlab, minglab demaylik, bir oilani uyli qilish, bir oilaning farovon turmushini ta’minlash, bitta bog‘cha yoki maktab qurish va ularda sifatli ta’lim-tarbiyani tashkil etish, bir so‘z bilan aytganda, yangi turar joy massivlarida aholi va mehmonlar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish ozmuncha mehnat va mablag‘ talab etmaydi. Muhimi, bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda.



Prezidentimiz joriy yil 4 iyul kuni Sergeli tumaniga tashrifi chog‘ida hududdagi bu kabi bunyodkorlik ishlari, amalga oshirilayotgan yangi loyihalar bilan tanishdi. Yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Meni bir savol o‘yga toldiradi: bir necha yil avval mazkur Toshkent yer usti metrosi qurilmaganida nima bo‘lardi? Tasavvur qilaylik, ushbu yer usti metro bekatlari yon-atrofi, jumladan, Sergeli va unga tutash hududlardan poytaxt markazi va tumanlariga o‘qish va ishga jamoat transportida qatnovchi aholi qanday noqulaylik, tirbandliklarga duch kelardi? Ular qancha vaqt va mablag‘ yo‘qotardi? Bundan tashqari, ekologiyaga qancha zarar yetardi?!

Ha, bugun bu kabi savollarga javob berish, o‘tgan kunni eslash, ayni masalalar bo‘yicha o‘ylash, bosh qotirish, tasavvur qilishni istamaymiz. Ayrimlar Toshkent yer usti metrosiga oddiy inshootdek qaraydi. Aslida, bu — juda katta mablag‘ va mehnat talab qiladigan ulkan bunyodkorlik obyekti.

Keyingi yillarda bunday yirik obyekt va yangilanishlarni ko‘rib ko‘zimiz o‘rgandi. Aslida, hech narsa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Shunday ekan, bularga, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalikka, farovon hayotga shukrona qilishimiz, unga oz bo‘lsa-da o‘z hissamizni qo‘shishimiz ham farz, ham qarzdir.

**Xolmurod SALIMOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Yangi avlod darsliklarining an’anaviy qo‘llanmalardan farqi shundaki, ularda ilk bor kommunikativ yondashuv tamoyillari to‘la aks etgan. Kitob sahifalaridagi QR-kodlar orqali taqdim etiladigan audio va videomateriallar o‘zbek nutqini tabiiy muhitdagidek qabul qilishiga yordam beradi.**

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Hamkorlik



**Zamonaviy agrosanoat sohasi atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlariga tez moslashish, yuqori texnologiyalarni qo‘llash va xalqaro sifat standartlariga o‘tishni talab etmoqda. Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti jamoasining xalqaro hamkorlik aloqalari aynan mana shunday dolzarb vazifalarni hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.**

# ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR INTEGRATSIYASI

## Samarqandlik olimlar Polsha tajribasini o‘rganmoqda



**Shavkat HASANOV, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori, professor**

Joriy yilning 12-17-iyul kunlari institut vakillaridan iborat delegatsiya Polshada xizmat safarida bo‘lib qaytdi. Tashrif doirasida Yevropa Ittifoqida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash, agrosanoatda raqamli hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, oliy ta’lim sohasida o‘zaro tajriba almashish bo‘yicha qator strategik kelishuvlarga erishildi.

### Talabalar uchun haq to‘lanadigan xalqaro amaliyot bazasi

Delegatsiyaning dastlabki tashrif manzili xalqaro agrar kadrlar tayyorlash va mahsulot yetishtirishda boy tajribaga ega “GREEN CROPS Polska Sp. z o.o.” kompaniyasi bo‘ldi. Kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan “AgriCool” xalqaro ilmiy-ta’lim dasturi Yevropa va Markaziy Osiyodagi oliy ta’lim muassasalari talabalariga Polshada haq to‘lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash, zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘rganish va xalqaro tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Muzokaralar chog‘ida institut talabalarini Polshada ishlab chiqarish amaliyotiga jalb qilish, bitiruvchilar va professor-o‘qituvchilar uchun 6 oydan 12 oygacha bo‘lgan malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Safar davomida shu kompaniyada ishlab chiqarish amaliyotini o‘tayotgan institut talabalari bilan uchrashuv ham tashkil etildi. Institut rahbariyati talabalarning yashash va mehnat sharoitlari, ish haqi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi bilan yaqindan tanishdilar. Talabalar orttirayotgan amaliy ko‘nikmalari va zamonaviy bog‘dorchilik sirlari haqida so‘zlab berdi. Samimiy muloqotda xalqaro mehnat madaniyatini egallash va orttirilgan tajribani O‘zbekiston agroinnovatsiyalari rivojiga safarbar etish bo‘yicha maslahatlar berildi.

Delegatsiyaning “Gospodarstwo Ogrodnicze Wiktor Grochowski” bog‘dorchilik xo‘jaligiga qilgan amaliy tashrifi chog‘ida malina va qulupnay yetishtirishda yuqori texnologiyalar imkoniyatidan foydalanish afzalliklari haqida gapirildi. Xalqaro standartlar asosida ish yurituvchi ushbu xo‘jalikda agrodronlar va tomchilatib sug‘orish tizimlari, raqamli monitoring orqali o‘simliklarni oziqlantirish, avtomatlashtirilgan yig‘im-terim hamda lazerli saralash texnologiyalari keng joriy etilgan. Bu mehmonlarida katta taassurot uyg‘otdi.

Samarqandlik olimlar ushbu ilg‘or tajribalarni viloyatning intensiv bog‘dorchilik va rezavor mevachilik tarmog‘iga tatbiq etish yuzasidan aniq rejalarni belgilab oldi. Shuningdek, meva va sabzavotlarni qayta ishlovchi “GREEN FACTORY” korxonasida oziq-ovqat xavfsizligi va mahsulot kuzatuvchanligi tizimi o‘rganildi. “GREEN FACTORY” Polshada yangi uzilgan sabzavot va mevalarni qayta ishlash, saralash, yuvish, qadoqlash hamda yirik savdo tarmoqlariga yetkazib berishga ixtisoslashgan yuqori texnologiyali korxona hisoblanadi.

Korxonada barcha jarayon raqamli boshqaruv tizimi orqali nazorat qilinadi. Tashrif davomida mahsulotlarni avtomatik saralash bo‘yicha robotlashtirilgan qadoqlash liniyalari, mahsulotlar sifatini lazer orqali nazorat qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash tizimi hamda mahsulotlarning to‘liq kuzatuvchanlik tizimi bilan tanishildi.



### Yuqori haroratga chidamli makkajo‘xori hamda soya navlari sinovdan o‘tkaziladi

Xizmat safari davomida Polsha va Germaniya hamkorligida tashkil etilgan mashhur “FARMSAAT Saatzucht GmbH” seleksiya kompaniyasi bilan ham muhim kelishuvga erishildi. Unga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va yuqori haroratga chidamli makkajo‘xori hamda soya navlari Samarqanddagi tajriba maydonlarida sinovdan o‘tkaziladi.

Tashrifning so‘nggi kunida O‘zbekiston Respublikasining Polshadagi elchixonasi va Polsha — Osiyo Savdo sanoat palatasi vakillari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi. Unda institut talabalari, magistrant va doktorantlarining Polshaning yetakchi olmachilik va intensiv bog‘dorchilik xo‘jaliklarida amaliyot o‘tash imkoniyatini kengaytirish, O‘zbekistonda istiqbolli olma navlari genetik resurslarini saqlashga qaratilgan “gen banklari”ni tashkil etish bo‘yicha dastlabki hamkorlik loyihalari belgilandi.

### Besh yillik memorandum imzolandi

Ilm-fan va ta’lim integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Titsianov davlat amaliy fanlar universiteti jamoasi bilan uchrashuv o‘tkazilib, muzokaralar yakunida ikki oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida besh yilga mo‘ljallangan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumga ko‘ra, tomonlar o‘rtasida professor-o‘qituvchilar va talabalar akademik almashinuvi (“Erasmus+”, “Horizon Europe”, “NAWA”), ikki tomonlama qo‘shma diplom berish dasturlarini (Double Degree) ishlab chiqish, yozgi va qishki maktablar, qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishga kelishildi.

Shuningdek, institut delegatsiyasi “Zamonaviy qishloq xo‘jaligida sifat tizimlari: amaliy nuqtayi nazar” mavzusidagi IV xalqaro ilmiy konferensiyada faol ishtirok etdi. Institutimiz olimlarining O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va agrar ta’limni modernizatsiya qilish mavzularidagi ma’ruzalari Germaniya, Italiya, Finlyandiya kabi mamlakatlardan kelgan olimlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Qolaversa, mazkur xorijlik mutaxassis-olimlar institutda joriy yil sentyabr oyida o‘tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy anjumanda ham ishtirok etish istagini bildirdi.

Qisqasi, institutimiz delegatsiyasining Polshaga xizmat safari shunchaki tanishuv emas, balki aniq amaliy natijalarga boy bo‘ldi. Jahon standartlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, xalqaro grantlarni jalb etish va yangi navlarni sinovdan o‘tkazishga qaratilgan bu kabi tashabbuslar mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini yangi raqamli va innovatsion bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

# ONA TILIMIZ PARVOZI

## EZGU TASHABBUS VA SA’Y-HARAKATLARDA NAMOYON BO‘LMOQDA

**Har bir millat mavjudligi, jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni hamda tarixiy qiyofasi, shubhasiz, o‘z tiliga e’tibori bilan o‘lchanadi. Shiddatli globallashuv davrida ona tilimiz nufuzini oshirish, uning boy ma’naviy xazinasini xalqaro miqyosda namoyon etish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani ayni haqiqat. Ma’naviy islohotlar doirasida o‘zbek tilini nafaqat mamlakatimizda, butun dunyo hamjamiyatida keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.**

Munosabat



**Nozliya NORMURODOVA Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori, professor**

Shu o‘rinda Prezidentimizning 2024-yil 12-yanvardagi “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, adabiyotimiz va tilimizni zamonaviy texnologiyalar orqali xalqaro auditoriyaga tizimli hamda jozibador yetkazish yo‘lidagi muhim qadam sifatida kutib olingan edi. Bugungi kunda mazkur hujjat xorijliklarga o‘zbek tili va madaniy merosini o‘rgatishning yangi, ilmiy-metodik jihatdan mukammal tizimini hayotga tatbiq etish imkonini bermoqda. Bunday tizimli sa’y-harakatlar ona tilimizning xalqaro maydondagi mavqeini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Yaqin-yaqingacha o‘zbek tilini chet til sifatida o‘qitishning yagona milliy standarti yo‘qligi jiddiy muammolardan edi. Garchi aksariyat olim va metodistlar alohida darslik hamda qo‘llanmalar yaratgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari quruq grammatik qoidalarga tayanib, zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan yiroqroq edi. Multimedia va raqamli resurslar cheklangani sababli xorijliklarga o‘zbek tilini mustaqil hamda qiziqarli shaklda o‘zlashtirish ancha qiyin kechgan. Eng yomoni, Umumevropa tillarni egallash kompetensiyalari (CEFR) talablariga mos, oddiydan murakkabga yo‘naltirilgan va milliy qadriyatlarimizni til bilan uyg‘un o‘rgatuvchi yaxlit darsliklar majmuasi mavjud emasdi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish va tilimiz butun dunyo bo‘ylab yangrashi uchun poydevor yaratish bugun milliy o‘zlikni asrash hamda uni xalqaro maydonga yoyishdagi hayotiy ehtiyojlardan biriga aylandi.

Shu ehtiyojni teran anglagan holda universitetimiz huzuridagi “O‘zbek maktabi” qator ishlar qilmoqda. Jumladan, xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishning yaxlit metodik tizimi ishlab chiqildi. Izchil izlanishlar natijasida xalqaro standartlarga javob beradigan A1, A2 va B1 darajalar uchun o‘quv dasturlari hamda yangi avlod darslik majmualari yaratildi. “Xorijliklar uchun o‘zbek tili” deb nomlangan bu darsliklar birgina o‘quv quroli emas, o‘zbek xalqining madaniy kodi, ma’naviyati va mehmondo‘stligini xalqaro jamoatchilikka ochib beruvchi ma’rifat elchisiga aylandi. Qo‘llanmalar tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozishdan iborat to‘rtta asosiy til ko‘nikmasini tizimli rivojlantirishga qaratilgan amaliy yondashuvi bilan ajralib turadi.

Yangi avlod darsliklarining an’anaviy qo‘llanmalardan farqi shundaki, ularda ilk bor kommunikativ yondashuv tamoyillari to‘la aks etgan. Kitob sahifalaridagi QR-kodlar orqali taqdim etiladigan audio va videomateriallar o‘zbek nutqini tabiiy muhitdagidek qabul qilishiga yordam beradi. Real hayotiy vaziyatlar hamda jonli muloqotlarga qurilgan topshiriqlar chet elliklarni til to‘sig‘idan tezda xalos etadi.

Darsliklarda til va madaniyat tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda berilgan. Xalqimizning boy tarixi, an’analari, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy materiallar darslar mazmuniga singdirilgan. Milliy realiyalar, iboralar va kundalik ifodalar xorijliklarga tushunarli tilda, tabiiy sharhlar bilan berilgani o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Yangi metodik tizim nazariy qarashlar bilan cheklanib qolmay, amaliy sinovlardan ham muvaffaqiyatli o‘tayotir. Darsliklar “O‘zbek maktabi” va xorijdagi O‘zbek tili va madaniyati markazlarida bir necha bosqichli sinovdan o‘tkazildi. Xalqaro auditoriya, xususan, yetakchi tilshunoslarning taklif hamda tavsiyalari asosida kitoblar mazmuni yanada takomillashtirildi. Bugunga qadar mazkur qo‘llanmalar yordamida dunyoning 30 dan ortiq davlatidan kelgan 700 dan ziyod xorijlik o‘zbek tilini o‘zlashtirishga erishdi. O‘rganuvchilar safida diplomatlar, xalqaro tashkilotlar xodimlari, chet ellik professor-o‘qituvchilar, tadbirkorlar va jurnalistlar borligi ona tilimiz nufuzi yuksalib borayotganini ko‘rsatadi. E’tiborga molik jihati, bu darsliklar Buyuk Britaniyaning Oksford universitetidagi “O‘zbekshunoslik” dasturiga asosiy o‘quv materiali sifatida kiritildi. Shuningdek, Italiyaning nufuzli Ka-Foskari universitetining Osiyo va Shimoliy Afrika tadqiqotlari bo‘limi talabalariga ushbu darsliklar orqali o‘zbek tili o‘rgatilmoqda. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy elchilar va diplomatlarga taqdim etilgan bu kitoblar bugun madaniyatimizning o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylanib borayotir.

Raqamlashtirish asrida o‘quv tizimining zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi muvaffaqiyatning asosiy kafolati. Ushbu o‘quv-metodik tizimning ilg‘or raqamli qismi sifatida “Uzacademy” platformasi ishga tushirildi. Davlatimiz rahbari qarori asosida yaratilgan platforma oddiy til o‘rgatish sayti bo‘libgina qolmay, xalqimizning dunyoqarashi va tarixini aks ettiruvchi yagona elektron ekotizimdir. Unda yurtimiz tarixi, adabiyoti, san’ati hamda boy an’analariga oid ilmiy-ommabop maqolalar, podkastlar, onlayn mahorat darslari va mediamateriallar jamlangan. Tizimdagi A1–B1 darajalari bo‘yicha onlayn kurslar interaktiv darslar, videoroliklar va elektron darsliklar orqali qulay masofaviy ta’lim imkonini beradi. Har bir daraja uchun tayyorlangan 12 ta dars orqali foydalanuvchilar asosiy til ko‘nikmalarini zamonaviy metodlar yordamida o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ldi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yaratilgan raqamli imkoniyatlar qisqa vaqt ichida amaliy natijasini ko‘rsatdi. “Uzacademy” orqali Turkiya, Qirg‘iziston, Ozarbayjon va Tojikistondagi markazlarning 35 a’zosi, Shanxay chet tillar universitetining 6 talabasi hamda Oksforddagi dasturning 12 tinglovchisi o‘zbek tilini boshlang‘ich va o‘rta darajalarda muvaffaqiyatli o‘rgandi.

Istiqboldagi rejalar o‘zbek tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Xususan, xorijliklarga tilni mukammal o‘rgatish maqsadida B2 va C1 darajalari uchun o‘quv dasturlari, yangi darsliklar, mashq daftarlari hamda metodik qo‘llanmalar yaratish ustuvor vazifalardan. “Uzacademy” platformasida ham yuqori bosqichlar uchun to‘liq onlayn kurslar yo‘lga qo‘yiladi. Muhimi shundaki, xorijliklar uchun yaratilgan ushbu samarali tajriba endilikda mamlakatimiz ichidagi auditoriya ehtiyojlariga ham moslashtirilmoqda. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan hamkorlikda yurtimizdagi turli millat vakillariga davlat tilini o‘rgatish bo‘yicha darajalashtirilgan metodik majmualar va raqamli resurslar ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, o‘zbek tili va madaniyatini dunyo miqyosida targ‘ib qilish bo‘yicha yaratilgan ushbu tizim shunchaki ta’limiy loyiha emas. Bu sa’y-harakatlar zamirida ona tilimiz, boy tariximiz hamda milliy o‘zligimiz qadr-qimmatini xalqaro maydonda yuksaltirishdek maqsad yotibdi. O‘zbek tili nufuzini asrash va uni dunyoga keng yoyish yo‘lidagi bunday amaliy qadamlar kelgusida xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlovchi asosiy kuchga aylanadi.

Jarayon

**Hozir Navoiy viloyatida 268 mingdan ziyod yosh istiqomat qiladi. Ularning har biri kelajakka o‘z rejasi bilan qadam qo‘ymoqda. Davlatimiz rahbarining yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga qaratilgan qator qarorlari esa bu orzularni amaliy ishlarga aylantirmoqda. 2026-yilning dastlabki oylarida viloyatda minglab yoshlar tadbirkorlik yo‘nalishida ish boshladi. Kredit olib, o‘zini o‘zi band qildi yoki doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.**

# YOSHLAR BANDLIGI FAQAT ISH TOPISH DEGANIMI?



— Joriy yilning o‘tgan besh oyida viloyatimizda 11 ming 500 yigit-qizning bandligi ta’minlandi, — deydi Navoiy viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i Lutfullo Xayrullayev.

— Ularning 964 nafari korxonalardagi bo‘sh ish o‘rniga joylashtirilib, 476 yosh o‘qishga jalb qilindi, kasb-hunar o‘rgatildi. Bundan tashqari, 13 nafariga ijaraga yer ajratildi. Imtiyozli kredit asosida 342 yoshning bandligi ta’minlandi. Har payshanba kuni rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil qilinib, ularning muammosi o‘rganilmoqda. Yoshlarimiz ham o‘z o‘rnida mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga harakat qilmoqda.

Qizilqum kengliklarida, elektr tarmoqlari yetib bormagan hududlarda ham energiya manbasini hosil qilish imkonini beruvchi innovatsion qurilma yaratildi. Ushbu ixtiro qumloq va ovloq joylarda yashovchi aholi, chorvadorlar hamda sayyor faoliyat yurituvchilar uchun qulay yechim bo‘lishi kutilmoqda.

Muhimi, bu g‘oya ortida yoshlarning bilimga chanqoqligi, izlanuvchanligi va yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi mujassam. Bir qarashda oddiy ko‘ringan qurilma kelajakda qayta tiklanuvchi energiya sohasida yangi imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin. Katta g‘oyalarni amalga oshirish uchun, albatta, katta shahar shart emas. Izlanish, bilim va tashabbus bor joyda taraqqiyot ham bo‘ladi. Qizilqumda yaratilgan bu innovatsion yechimni yoshlar salohiyatining yana bir yorqin namunasi sifatida keltirish mumkin.

Asalarichilikni bir nechta qutidan boshlagan 19 yoshli Pirmuhammad Xudoyorov imtiyoz va amaliy ko‘mak orqali faoliyatini ancha kengaytirdi. Bir qarashda kichik tashabbusdek tuyulgan bu ish bugun barqaror daromad manbasiga aylandi.

— Bu sohada ish boshlaganimda bilim va tajribam yo‘q edi, — deydi P. Xudoyorov. — “Mahalla yettiligi” yaqindan ko‘mak berdi va ko‘p yillik asalarichilarni biriktirdi. Ushbu yo‘nalishda ko‘nikmaga ega bo‘lgach, 50 million so‘m imtiyozli kredit oldim va ikki quti asalari uyasini 45 taga yetkazdim. Bunday ishning o‘ziga yarasha mashaqqati ham, shunga yarasha daromadi ham bor. Asalarichilik sirlarini ijtimoiy tarmoqlardan ham o‘rganyapman. Tajribali asalarichilar faoliyati va tavsiyalarini doimiy kuzatib boraman. Kelgusida faoliyatimni yanada kengaytirib, yangi ish o‘rinlari ochish niyatidaman.

Tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yib, nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham bandligini ta’minlashga hissa qo‘shayotgan yoshlarning kelajakka ishonchi mustahkam, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishga shay. Boisi, ish izlagan, o‘z biznesini boshlashni orzu qilgan yoshlar bugun muammolari bilan yolg‘iz qolmayapti. Davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, kasb-hunarga o‘qitish dasturlari orqali ularning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanmoqda.

— Mahallamizda hozir 565 yosh istiqomat qiladi, — deydi Xatirchi tumanidagi Bog‘ishamol mahallasi hokim yordamchisi Qosimjon Shopo‘latov. — 2026-yilgi xatlov jarayonida kasbiy ta’limni o‘tagan, migratsiyadan qaytgan, oliy ta’limni bitirgan yoshlarimizdan 18 nafarining ishsizligi aniqlandi. Ular bilan suhbat asosida imkoni boricha o‘zlarini qiziqtirgan sohalar bo‘yicha kasb-hunarga yo‘naltirdik. 8 nafarini tegishli yo‘nalishda o‘qitib, sertifikat berdik, 10 nafariga imtiyozli kreditlar ajratilib, bandligi ta’minlandi. Bugun ular tadbirkorlik faoliyatini boshlab yuborgan.

Kredit, yer, kasb-hunarga o‘qitish va ish bilan ta’minlashga qaratilgan imkoniyatlar Navbahor tumanida ham samara bermoqda. Muhimi, bu tashabbus yoshlarning daromadli mehnat qilishi, o‘z kelajagini mustahkam poydevor asosida qurishiga xizmat qilmoqda. Imtiyozli kreditlar nafaqat yangi biznes boshlash, balki faoliyatni kengaytirish imkonini ham bermoqda.

— Mahallamizda 30 yoshgacha bo‘lgan 850 yosh istiqomat qiladi, — deydi Navbahor tumani Navkar mahallasidagi hokim yordamchisi Dildora Suvonova. — Ularning har biri bilan manzilli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Aytaylik, o‘tgan yili 35 nafarining bandligi ta’minlangan bo‘lsa, joriy yilning 6 oyida bu ko‘rsatkich 24 nafarni tashkil etdi. Ulardan 14 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 8 nafariga imtiyozli kredit ajratildi va subsidiya asosida 2 nafarining bandligi ta’minlandi. Asosiy maqsadimiz yaratib berilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanib, yoshlar bandligini ta’minlash, ishsizlikka to‘liq barham berish.

Yerdan unumli foydalanish orqali daromad topish imkoniyati bugun ko‘plab yoshlar uchun muhim tajriba maktabiga aylanmoqda. Ijara maydondan samarali foydalanishni maqsad qilgan Qosimbek Sayfullayev ham kelajakka katta ishonch bilan qaramoqda.

— Doimiy daromadga ega bo‘lish uchun yerni ijaraga oldim. Oilamiz bilan birga qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtiryapmiz, — deydi Qosimbek Sayfullayev. — Yerdan unumli foydalanish uchun pomidor urug‘ini ekkanmiz. Mo‘l hosil olish maqsadida tunu kun mehnat qilyapmiz. Avgust-sentyabr oylarida 100 tonnaga yaqin hosil olishni rejalashtiryapmiz.

Yoshlar bandligi shunchaki ish o‘rni emas, balki insonning ertangi kunga ishonchi hamdir. Shu bilan birga, oila daromadi, farzandlar ta’limi, xonadon farovonligi demak. Bugun Navoiyda asalarichilikdan tortib, uzumchilikkacha, tikuvchilikdan tortib, tibbiyotgacha bo‘lgan yo‘nalishlarda yoshlar o‘z o‘rnini topyapti. Chunki imkoniyat berilgan joyda tashabbus tug‘iladi, tashabbus bor joyda esa mehnat va daromad bo‘ladi, kambag‘allikka o‘rin qolmaydi.

**G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uz_news yuz.uz_news

**Zomin anjumani o‘zbek milliy adabiyotining kelajagi, ertangi kun shoirlari, yozuvchilari, tarjimonlari, dramaturglari, tanqidchi va publitsistlari kamol topadigan buyuk darsxonadir.**





## Yosh ijodkorlar anjumani

# ZOMIN SEMINARI – MILLIY ADABIYOTNING ULUG‘ DARSXONASI



Ma’mura ZOHIDOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Yosh ijodkorlar bilan ishlash bo‘limi mas’uli

**O‘zbek adabiyotining tarixiga nazar tashlasak, ijodkorlarning taqdirida burilish yasagan, qalamiga qanot bag‘ishlagan ayrim dargohlar, maskanlar, ijodiy davralar, turli anjumanlar, ba’zi uchrashuvlar, voqealar haqidagi xotiralar, e’tiroflarni ko‘ramiz. Ana shunday muborak manzillardan biri Zomindir. Bu nom bugun faqat Jizzax viloyatidagi so‘lim tog‘ bag‘ridagi go‘zal go‘sha emas, balki yosh iste’dodlar taqdirini belgilab beruvchi adabiy maktab sifatida ham alohida ehtirom bilan tilga olinadi.**

Respublika yosh ijodkorlarining an’anaviy Zomin seminarining o‘ziga xosligi shundaki, u oddiy tanlov yoki ijodiy kecha emas. Bu yerda she’rlar, hikoyalar, maqolalar, dramalar, badiiy tarjimalar va boshqa janrlardagi asarlar muhokama qilinadi, tahlil etiladi. Eng muhimi, bir saf kitobxonlar tarbiyalanadi, ularning qalblari yuksaladi, o‘ziga tanqidiy qaray oladigan ijodkor shakllanadi. Seminarning maqsadi ham aynan yoshlar qalbidagi iste’dod uchqunlarini alangaga aylantirish, bu iste’dod yo‘qolib ketmasligi yo xiralashib qolmasligi uchun ko‘p mutolaa va mehnat qilish zarurligini anglatishdir.

2026-yildagi seminar ham ana shu ezgu an’ananing mantiqiy davomi bo‘ldi. Zominda 7-9-iyul kunlari “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli oromgohda o‘tkazilgan mazkur anjumanda yurtimizning barcha hududlaridan saralangan 136 yosh ijodkor ishtirok etdi. Ular she’riyat, nasr, badiiy publisistika, tarjima, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid va dramaturgiya kabi yo‘nalishlarda ijod namunalari bilan ishtirok etib, ustozlar sabog‘idan bahramand bo‘lish, tengdoshlari ijodini kuzatish imkoniga ega bo‘ldi.

Zomin tog‘lari sari yo‘l poytaxtdan, Adiblar xiyobonidagi Alisher Navoiy haykali poyidan boshlandi. Ishtirokchilar eng avval mutafakkir shoir xotirasiga ehtirom ko‘rsatib, poyiga gul qo‘ydi. Bu ramziy tadbir har bir yosh qalamkash uchun adabiyotning muqaddas mas’uliyatini yana bir bor his ettirdi. Keyin esa sohaning mas’ul vakillari boshchiligida Zomin sari yo‘l olindi. Yo‘lda har kimning ko‘nglida turlicha hayajon, turlicha orzu, kimdir o‘z ustozi bilan uchrashishni intizorlik bilan kutar, kimdir ilk bor she’rlarini xalq shoiriga o‘qib berish haqida o‘ylar, yana kimdir kelajakdagi ilk kitobining yo‘li aynan shu yerdan boshlanishiga ishonardi.

Tog‘lar aslida insonni sokinlikka chorlaydi. Ammo bu seminar o‘tkaziladigan pallada Zomin tog‘lari ijodkorlarni yonishga, izlanishga, fikrlashga, qalbining eng teran qatlamlariga nazar tashlashga undaydi. Shu bois, yillar davomida bu maskan o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos laboratoriyasiga aylandi. Bu yerda ustoz bilan shogird o‘rtasidagi masofa qisqaradi. Mashhur adib bilan yosh ijodkor bir davrada o‘tirib she’r muhokama qiladi, hikoyaning zaif va kuchli jihatlarini birgalikda tahlil etadi. Ana shu muhitning o‘zi hayotdagi eng katta saboqdir.

Tadbirning rasmiy ochilish marosimida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid hamda Jizzax viloyati hokimi Ulug‘bek Mustafoyev so‘zga chiqib, mamlakatimizda yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish, yosh ijodkorlar uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratish borasidagi davlat siyosatining ahamiyati hamda yangi davr ijodkorlari oldida turgan mas’uliyatli vazifalarga batafsil to‘xtalib o‘tdi.

O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O‘zbekiston xalq yozuvchisi va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Kengesboy Karimov, Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari G‘ayrat Majid hamda qator taniqli ustoz ijodkorlar yosh qalamkashlarga samimiy tilak va ijodiy o‘gitlarini bildirdi.

Chiqishlarda bir umumiy g‘oya yaqqol sezilib turdi: mamlakat kelajagini ma’naviyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ma’naviyat tayanchi esa adabiyotdir. Shuning uchun har bir yosh ijodkor nafaqat yaxshi asar yozishni, balki xalqning dardi va orzusini his eta oladigan katta qalb egasi bo‘lishni o‘rganishi zarur.

Ushbu fikrlar Zomin seminarining butun ruhiyatiga hamohang edi. Chunki bu maskanda bo‘lajak ijodkorning she’r yoki hikoya yozish uslubigina emas, yosh qalblarning ma’naviy qiyofasi ham shakllanadi. Birinchi kun yakunida ochiq osmon ostida ustozlar va yoshlar ishtirokida an’anaviy mushoira kechasi tashkil etilib, unda she’riyat bayrami ko‘tarinki ruhda davom etdi.

Seminarning ikkinchi kuni tadbirning amaliy-ijodiy bosqichiga o‘tildi. Yosh ijodkorlarning iste’dodi va intilishlarini to‘g‘ri baholash, kasbiy yo‘nalish berish maqsadida taniqli yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunos olimlar, jurnalistlar, tarjimonlar va dramaturglardan iborat ustozlar guruhlari shakllantirildi. Hududiy bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tib, respublika bosqichiga saralab olingan iqtidorli yoshlar bilan jami 7 ta asosiy adabiy yo‘nalish bo‘yicha maxsus sho‘balarga bo‘linib, “ustoz-shogird” an’analari asosida erkin muloqot, jonli bahslar va chuqur tahlillar shaklidagi ijodiy mahorat darslari va seminar-treninglar o‘tkazildi. Shu kuni seminar ishtirokchilari uchun O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton ishtirokida mahorat darsi tashkil etildi.

Hakamlar hay’ati uchun ijodkorning kitobxonligi, fikrlash madaniyati, dunyoqarashi, so‘zga munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Axir iste’dodni aniq mezonlarga solib bo‘lmaydi. Uni faqat haqiqiy ijodkorning qalbi his etadi. Shu bois, hakamlar uchun eng asosiy mezon yosh qalamkash asaridagi samimiyat, ichki ovoz va ertangi katta ijodkorga aylanish imkoniyatini, yo‘llarini, mashaqqatini ko‘ra bilish bo‘ldi.

Zomin seminari yillar davomida necha-necha mashhur shoir va yozuvchilarni kamolga yetkazgan. Bu yerda bir vaqtlar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Anvar Obidjon, Abduvali Qutbiddin, Luqmon Bo‘rixon kabi ustozlar saboq bergan bo‘lsa, keyingi yillarda Usmon Azim, Xurshid Do‘stmuhammad, Mamatqul Hazratqulov, Nazar Eshonqul, O‘ktam Mirzayor, Kenesboy Karimov kabi ko‘plab taniqli ijodkorlar yangi avlodga mahorat sirlarini o‘rgatib kelmoqda. Demak, bu seminar avlodlar o‘rtasidagi mustahkam ijodiy ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Zominga kelgan har bir yosh ijodkor, eng avvalo, o‘zini sinaydi, qalami qay darajada pishganini, fikri qay darajada mustaqilligini, kitoblarni — jahon adabiyotini, milliy adabiyotimizni qanchalik mutolaa qilayotganini anglaydi. Bu yerda ustozlar tayyor yo‘l ko‘rsatmaydi, ular yo‘nalish beradi, izlanishga undaydi, qalb eshigini ochadi, qolganini esa ijodkorning o‘zi topadi.



Zomin seminarining eng katta yutug‘i shundaki, u yosh ijodkorni tayyor qoliplarga solmaydi. Aksincha, unga o‘z ovozini topishiga ko‘maklashadi. Chunki adabiyotda hech kim ikkinchisining takrori bo‘lib yashay olmaydi. Haqiqiy ijodkorning eng katta boyligi uning betakror ovozi, hayotga o‘z nigohi, odamlarga o‘z munosabati va so‘zga o‘z ishonchidir.



Zominda har bir mashg‘ulot ma’ruza emas, muloqot tarzida kechadi. Bu yerda ustoz gapiradi, shogird tinglaydi degan bir tomonlama tartib yo‘q. She’r o‘qiladi, har bir misra muhokama qilinadi. Hikoyaning kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, til xususiyatlari, publitsistik maqoladagi fikr mantig‘i, tarjimadagi uslubiy yondashuvlar, maqol va hikmatlar tarjimalarida e’tiborli jihatlar haqida erkin bahslar yuritiladi. Ana shu bahslar yosh ijodkorni fikrlashga, o‘z asariga tanqidiy nazar bilan qarashga o‘rgatadi.

Bu yilgi seminarda ham she’riyat, nasr, badiiy publitsistika, badiiy tarjima va baynalmilal adabiyot, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid hamda dramaturgiya kabi yetti asosiy yo‘nalish bo‘yicha mahorat darslari tashkil etildi. Har bir yo‘nalishga mamlakatimizning taniqli shoir, yozuvchi, tarjimon va adabiyotshunoslari rahbarlik qildi.

She’riyat sho‘basida O‘zbekiston xalq shoirlari Mahmud Toir, Xosiyat Bobomurodova, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Rustam Musurmon, taniqli shoirlar Salim Ashur, Shoira Shams, Muhiddin Omon, G‘ulom Abdiyev, Sirojiddin Rauf kabi ustozlar ishtirok etgani yoshlar uchun katta baxt bo‘ldi.

Nasr yo‘nalishida Xurshid Do‘stmuhammad, Kenesboy Karimov, Nurilla Choriyev kabi qalam sohiblari yoshlar bilan suhbatlashdi. Publitsistika sho‘basida esa zamonaviy jurnalistika va badiiy tafakkur uyg‘unligi haqida qizg‘in fikr almashildi. Tarjima yo‘nalishida turli xalqlar adabiyotining eng yaxshi namunalarini o‘zbek kitobxoniga qanday ruhda yetkazish masalalari muhokama qilindi. Bolalar adabiyotida esa bola qalbiga yo‘l topishning eng nozik jihatlari haqida fikr yuritildi.

Seminarning yana bir muhim jihati ishtirokchilarning tarkibida edi. Respublikamizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, ijod maktablari o‘quvchilari hamda “Yosh vatandosh yozuvchi” loyihasining Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda istiqomat qilayotgan ishtirokchilari bir davrada jam bo‘lgani Zomin seminari qamrovi yil sayin kengayib borayotganini ko‘rsatdi. Bu nafaqat adabiy, balki ma’naviy birlikning ham yorqin ifodasi bo‘ldi.

Ijodni raqam bilan o‘lchab bo‘lmaydi, iste’dodga hujjat talab qilinmaydi. Diplomi ham bo‘lmaydi, ijod qalblarda yaralib, qalblarga yetib boradi.

Bu haqiqatni Zomin seminari yana bir bor isbotladi. Ba’zan birgina misra butun bir kitobdan og‘ir keladi, ba’zan esa yuzlab sahifalarda ham birorta haqiqiy fikr uchramaydi. Shuning uchun bu yerda hakamlar hay’ati ishtirokchilarni “birinchi”, “ikkinchi” yoki “uchinchi” o‘rinlarga bo‘lishdan ko‘ra, ularning ertangi imkoniyatini ko‘rishga harakat qilishdi. Hakamlar hay’ati har bir yosh ijodkorning kitobxonligiga alohida e’tibor qaratdi. Zero, kitob insonning lug‘atini boyitadi, tafakkurini kengaytiradi, didini shakllantiradi, eng muhimi, qalbidagi insoniylikni asraydi.

Zomindagi muhokamalarda aynan shu jihat yaqqol sezildi. Ustozlar she’rning vazni yoki qofiyasi haqidagina emas, balki o‘qilgan kitoblar, jahon adabiyoti, milliy adabiyot an’analari haqida ham savollar berdi.

Seminarning ikkinchi kuni ishtirokchilar uchun yana bir unutilmas tuhfa tayyorlangan edi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan o‘tkazib kelinayotgan “So‘z” loyihasi doirasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton asari asosida sahnalashtirilgan “Yaldo kechasi” sahna asari seminar ishtirokchilarida kuchli taassurot qoldirdi.

Bu oddiy spektakl bo‘lmay, so‘zning qudratini namoyish etuvchi falsafiy sahna bo‘ldi. Sahnadagi har bir harakat, har bir sukut, har bir dialog tomoshabinlarni millat qayg‘usiga olib kirdi. Bugungi kun zabardast shoirlari she’rlarini o‘zi o‘qib berdi. Ta’sirchan she’rlar bilan boyitilgan namoyish, ayniqsa, yosh ijodkorlar uchun katta saboq bo‘ldi. Ular badiiy so‘zning kitob sahifasidagina emas, sahnada ham qanday ulkan ta’sir kuchiga ega ekanini yana bir bor his qildi. So‘z oddiy muloqot vositasi emas, u — millat xotirasi, u — xalq vijdoni, inson taqdiri. Agar so‘z yuksalsa, millat ham yuksaladi. Bu tomosha ana shularni yana bir bor barchaga eslatdi.



Ehtimol, kimdir shu kechadan keyin dramaturgiyaga qiziqib qolgandir, kimdir “Yaldo kechasi” kitobini o‘qishni diliga tukkandir, kimdir shu mavzuda hikoya yoki she’r yozishga...

Zominning eng katta mo‘jizasi ham shunda — u insonning qalbini to‘ldiradi. Haqiqiy adabiyot hech qachon shoshilib tug‘ilmaydi, uning uchun vaqt, mutolaa, izlanish kerak. Zomin seminari ana shu haqiqatni har yili yuzlab yoshlarga yana bir bor anglatadi. Bu yerga kelgan har bir ishtirokchi she’r yoki hikoya yozishnigina emas, ijodkor bo‘lib yashash, millat yukini orqalashning mas’uliyatini ham his qilib qaytadi.

Bugun axborot oqimi mislsiz tezlashgan, sun’iy intellekt hayotning ko‘plab sohalariga kirib kelgan, ijtimoiy tarmoqlarda bir lahzada minglab matnlar tarqalayotgan davrda haqiqiy badiiy so‘zning qadri yanada oshib bormoqda. Chunki texnologiya insonga ma’lumot bera oladi, ammo qalbni chertuvchi hech narsa taqdim etolmaydi. U satr tuzishi mumkin, ammo dard yarata olmaydi. Adabiyot esa insonning ichki olamini tarbiyalaydi, shuning uchun Zomin seminari kabi ijod maktablari ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda.

Bu yerda ustozlar yoshlarga she’rning qofiyasinigina emas, insonning vijdonini ham o‘rgatadi, so‘zning mas’uliyatini anglatadi, yozuvchi bo‘lishdan oldin inson bo‘lish zarurligini eslatadi.

Seminar kunlari Zomin tabiati ham xuddi mashg‘ulotlarning bir qismiga aylangandek tuyuladi. Tongda tog‘lar bag‘ridan esgan musaffo shabada, archalarning o‘ziga xos ifori, qushlar sayrashi, uzoqlarda moviy tumanga o‘ralgan qoyalar, kechqurun esa tog‘lar ustiga asta-sekin cho‘kayotgan sokinlik...

Tabiat go‘yo ijodkor bilan suhbatlashadi. Shahar shovqinidan uzoqda inson o‘zini ham, qalamini ham qaytadan taniydi. Ehtimol, shuning uchun Zominda yozilgan birgina she’r ba’zan yillar davomida tug‘ilmagan misralarga teng keladi.

Anjuman davomida bo‘lib o‘tgan “Zomin oqshomlari” mushoirasi yosh ijodkorlar uchun katta adabiy bayramga aylandi. She’rlar birin-ketin yangrar ekan, har bir ovozda o‘ziga xos ruh sezilardi. Bir yosh shoir Vatan haqida o‘qirdi, boshqasi ona haqida, yana biri muhabbat haqida, ammo ularning barchasini birlashtirib turgan bitta tuyg‘u bor edi, bu — O‘zbekistonga muhabbat, ona tilga sadoqat, adabiyotga, u tufayli dunyoda ezgulik tantana qilishiga ishonch.

Mushoira tugaganidan keyin ham hech kim darhol tarqalib ketmadi. Kimdir ustozdan imzo olardi, kimdir yangi tanishgan do‘sti bilan she’r haqida bahslashardi. Kimdir esa yolg‘iz o‘zi tog‘lar tomon qarab o‘yga cho‘mardi. Ana shu manzaraning o‘zi Zomin seminarining haqiqiy mohiyatini ifodalaydi. Bu yerda raqobatdan ko‘ra hamjihatlik kuchliroq, havasdan ko‘ra mehr ustun, tanqiddan ko‘ra o‘rgatish muhimroq.

Agar so‘z qadrsizlansa, ma’naviyat zaiflashadi. Zomin seminari esa aynan shu muqaddas qadriyat — so‘zning maktabi ekanini yana bir bor namoyon qildi.

Seminarning yopilish marosimida g‘olib va faol ishtirokchilar taqdirlandi. Ammo bu yerda eng katta mukofot diplom yoki esdalik sovg‘a emas edi.

Eng katta mukofot — ustozlarning samimiy e’tirofi. Davralarda ko‘proq quyidagi xitoblar eshitildi: “Izlanishdan to‘xtama”, “Ko‘proq kitob o‘qi”, “Yozishda davom et”, “Qanday bo‘lsa ham yozib, tashlab qo‘y, boshqa nigoh bilan o‘qi”, “Sen dangasalik qilmasang, yaxshi ijodkor bo‘lasan”.

Ana shu bir og‘iz gap ba’zan har qanday mukofotdan qimmatli, har qanday xotiradan qadrliroq bo‘ladi. Chunki haqiqiy ustoz iste’dodni quruq maqtov rag‘bati bilan emas, yaxshi tavsiya, kelajakka bildirilgan ishonch bilan ulg‘aytiradi.

Bugun mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e’tibor tufayli ilm-fan, san’at va adabiyot sohalarida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ham ana shu ezgu siyosatning amaliy ifodasidir. Mazkur anjuman yoshlarning qalamiga ishonch, tafakkuriga yo‘l, orzulariga qanot bag‘ishlaydi.

Tantanali yopilish marosimida so‘zga chiqqanlar Zomin seminarining yoshlarni kashf etishdagi beqiyos ahamiyatini alohida e’tirof etdi.

Marosim davomida tadbir ishtirokchilarini rag‘batlantirish maqsadida yosh ijodkorlarga Yozuvchilar uyushmasi va hamkor tashkilotlar tomonidan zamonaviy noutbuk, smartfon (telefon), maxsus sertifikat va qimmatbaho kitoblar jamlanmasi tantanali ravishda topshirildi.

Zomin tog‘lari bag‘rida o‘tgan uch kun kimlar uchundir yillarga tatiydi, bugun ustozdan maslahat olgan yoshlar ertaga o‘zi ustoz bo‘ladi, bugun hayrat bilan tinglangan ovozlar ertaga milliy adabiyotning kuchli sadosiga aylanadi.

Zominga har yili yuzlab yoshlar keladi va hech kim bu maskandan avvalgi kayfiyatda qaytmaydi. Chunki ustozlar ma’naviy olamining o‘zi yosh qalamkashga katta mas’uliyat yuklaydi. Ehtimol, ana shuning uchun ham Zomin seminari haqida so‘z ketganda, ijodkorlar o‘rtasida eng avval “men borganman”, “menga nasib etmagan”, “qani endi yosh bo‘lib qolib, shu zamonda Zomin seminarida ishtirokchi bo‘lsam” kabi so‘zlar aytiladi.

Zomin anjumani o‘zbek milliy adabiyotining kelajagi, ertangi kun shoirlari, yozuvchilari, tarjimonlari, dramaturglari, tanqidchi va publitsistlari kamol topadigan buyuk darsxonadir. U milliy adabiyotimizning chinakam yaratuvchilariga nasib etsin.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-746.
29609 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.